

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozmalar huquqida

UDK: 891.709

SHODIYEV ODILJON FURQAT O‘G‘LI

**ABDULLOH XOTIFIY “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONINING MATNIY
TADQIQI VA G‘OYAVIY-BADIIY TALQINI**

**Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan
DISSERTATSIYA**

**Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga
qo‘yildi. Mumtoz adabiyot tarixi
kafedrası mudiri, f.f.d., prof.
Dilorom Salohiy _____**

“_____” _____ 2020-yil

**Ilmiy rahbar: filologiya fanlar
doktori, prof. Dilorom Salohiy
_____**

SAMARQAND – 2020

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozmalar huquqida

UDK: 891.709

SHODIYEV ODILJON FURQAT O‘G‘LI

**ABDULLOH XOTIFIY “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONINING MATNIY
TADQIQI VA G‘OYAVIY-BADIIY TALQINI
5A120101 – Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)**

**Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan
DISSERTATSIYA**

SAMARQAND – 2020

“Abdulloh Xotifiy “Layli va Majnun” dostonining matniy tadqiqi va g‘oyaviy-badiiy talqini” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTATSIYASI

Qadimdan Sharq xalqlari adabiyotida komil insonni tarbiyalashga qaratilgan juda ko‘plab asarlar va hikmatlar durdonlar butun dunyo madaniyatida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Tarixdan bizga ma’lumki, ota-bobolarimiz hayotida do‘stlik, sadoqat va eng avvalo, muhabbat mavzulari umrboqiy mavzular sirasiga kiritilgan. Shu sababli, bu hududlarda bu mavzulardagi har qanday asarlar sevib o‘qilgan. Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusi kabi keng tarqalgan boshqa bir ilohiy ishq qissasini topish qiyindir. Mana o‘n uch asrdirki, ushbu mavzuda adabiyot olamida she’r va dostonlar bitib kelinadi.

Mazkur magistrlik ishida Sharq adabiyotida “Layli va Majnun” turkumidagi asarlar va ularning o‘rganilishi tarixi haqida, o‘zbek va tojik adabiyoti namoyondasi Abdulloh Xotifiyning xamsachilik tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega “Layli va Majnun” dostoni matniy tadqiqi, g‘oyaviy-badiiy talqini, nashr nusxalari tadqiqi, asar syujeti va kompozitsion tuzilishining boshqa xamsanavistlar asarlaridagi qiyosiy tadqiqi haqida so‘z yuritiladi. Dissertatsiyaning so‘ngida dostonning transletiratsiyasi va ilmiy-tanqidiy matnidan parcha keltiriladi.

“Layli va Majnun” dostonlari an’anasidagi boshqa dostonlar umumiy ko‘lamda juda keng o‘rganilgan bo‘lib, qiyosiy o‘rganilishda, keng ko‘lamda Abdulloh Xotifiy asari tahlilga tortilmagan. Ushbu dissertatsiyamiz mavzusiining yangiligi ham shundadir. Ishda predmet vazifasini Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy va Abdulloh Xotifiy “Layli va Majnun” dostonlari o‘taydi va monografik ko‘lamda asarlarning qiyosiy tahlili o‘rganiladi.

Master's dissertation on the theme “Abdulloh Xotifiy “Layli va Majnun” dostonining matniy tadqiqi va g‘oyaviy-badiiy talqini”

ANNOTATION

From ancient times the literature of the peoples of the East has a special place in the culture of the world with its many works and masterpieces of wisdom aimed at educating the perfect man. We know from history that in the lives of our ancestors, the themes of friendship, loyalty and, above all, love were among the eternal themes. Therefore, any works on these topics are loved and read in these areas. It is difficult to find another divine love story in the literature of the Near and Middle East, such as Layli and Majnun.

For thirteen centuries, poetry and epics have been written on this subject in the world of literature.

In this master's thesis has been included info on the works of the series “Layli and Majnun” in Oriental literature and the history of their study, the study of the text of the epic “Layli and Majnun” by Abdullah Khatifi, a representative of Uzbek and Tajik literature, verse-artistic interpretation, study of printed copies, comparative study of the plot and compositional structure of the work in the works of other Hamsanavists has a special place in the history of Khamsa.

At the end of the dissertation there is a translation of the epic and an excerpt from the scientific-critical text.

Other epics in the tradition of Layli and Majnun have been studied extensively in general, and in the comparative study, the work of Abdullah Khatifi has not been extensively analyzed. This is the novelty of the topic of our dissertation. The subject of the work is the epics of Nizami Ganjavi, Alisher Navoi, Muhammad Fuzuli and Abdullah Hotifi “Layli and Majnun” and a comparative analysis of the works on a monographic scale.

**ABDULLOH XOTIFIY “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONINING MATNIY
TADQIQI VA G‘OYAVIY-BADIIY TALQINI
MUNDARIJA**

	Ishning umumiy tavsifi	6 – 11
I BOB.	ABDULLOH XOTIFIY “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI VA SHARQ ADABIYOTIDA ASARLARNING QO‘LYOZMA VA NASHR NUSXALARI TADQIQI VA ILMIY TAVSIFI	12 – 23
I.1.	Sharq adabiyotida “Layli va Majnun” turkumidagi asarlar va ularning o‘rganilishi tarixi	12 – 18
I.2.	Abdulloh Xotifiy “Layli va Majnun” dostonlarining manbalari tadqiqi	18 – 23
II BOB.	XOTIFIY “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI ADABIY AN‘ANA MAXSULI VA O‘ZIGA XOS BADIIY IJOD NAMUNASI SIFATIDA	24 – 59
II.1.	Asar syujeti va kompozitsion tuzilishi qiyosiy tadqiqi	24 – 38
II.2.	Asarda obrazlar tizimi va o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy talqin xususiyatlari	38 – 59
III BOB.	ABDULLOH XOTIFIY “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONINING ILMIY-TANQIDIY MATNI VA TARJIMASI	60 – 96
III.1.	Dostonning transletiratsiyasi va ilmiy-tanqidiy matni	60 – 94
III.2.	Dostonning o‘zbek tiliga tarjimai	94 – 96
	Xulosa	97
	Adabiyotlar ro‘yxati	98 – 101

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Qadimdan Sharq xalqlari adabiyotida komil insonni tarbiyalashga qaratilgan juda ko‘plab asarlar va hikmatlar durdonlari butun dunyo madaniyatida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Tarixdan bizga ma’lumki, ota-bobolarimiz hayotida do‘stlik, sadoqat va eng avvalo, muhabbat mavzulari umrboqiy mavzular sirasiga kiritilgan. Shu sababli, bu hududlarda bu mavzulardagi har qanday asarlar sevib o‘qilgan. Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusi kabi keng tarqalgan boshqa bir ilohiy ishq qissasini topish qiyindir. Mana o‘n uch asrdiki, ushbu mavzuda, adabiyot olamida she’r va dostonlar bitib kelinadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘zbek xalqi mustaqillikka erishmasdan oldin, barcha sohalarda bo‘lganidek, badiiy adabiyot sohasida ham xolisona va haqqoniy tarzda baho bera olmaslik holati kuzatildi. Bu esa badiiy asarlarga bir tomonlama qarash, asarlar g‘oyalarini ma’lum darajada buzib ko‘rsatish holatlarini vujudga keltirdi. Bu holat o‘sha davrda yirik ijodkorlarimizdan Oybek va Maqsud Shayxzoda, Sadriddin Ayniy va G‘afur G‘ulomlardan boshlab, yirik adabiyotshunoslarimiz – Olim Sharafiddinov, Izzat Sulton, Hamid Sulaymon, Vohid Abdullayev, Porso Shamsiyev, Vohid Zohidov, Natan Mallayev va boshqa olimlar ijodida qiyinchilik tug‘dirdi.

Mustaqillik sharofati bilan adabiyotda, xususan, xamsanavislik an‘anasi tahlilida Abduqodir Hayitmetov, Aziz Qayumov, Botirxon Valixo‘jayev, Alibek Rustamov, Muslihiddin Muhiddinov, Fozila Sulaymonova, Suyma G‘aniyeva va Dilorom Salohiy kabi taniqli allommalarimizning bu qutlug‘ mavzuni yoritishdagi haqqoniylik, fidoiylik va jonzliklari tahsinga sazovordir.

Mazkur magistrlik ishida Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy va Abdulloh Xotifiy “Layli va Majnun” dostonlari qiyosiy tahlili o‘rganilishi bilan bir qatorda, fors-tojik adabiyoti namoyondasi Abdulloh Xotifiy “Layli va Majnun” dostonining nasr nusxalari tadqiqi, transletirarsiyasi va ilmiy-tanqidiy matni haqida so‘z yuritiladi. Bu mavzu o‘zbek adabiyotida keng

ko‘lamda o‘rganilmagan adabiyotshunoslik sohaslaridandir. Bu esa ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati nechog‘lik ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovation iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. “Layli va Majnun” turkum dostonlari tadqiqi XI asarning o‘rtalaridan boshlanib, to hozigi kungacha o‘rganilgan va o‘rganib kelinmoqda. Jumladan, Nosir Xusravning “Safarnoma”¹, Ibn Qutayba Abu Muhammad Abdulloh ibn Muslimning “Kitob ash-shiru shuaro”², Ali ibn al-Husayn al-Asfahoniyning “Kitob al-ag‘oniy”, Muhammad ibn Dovud az-Zahir o‘g‘lining “Kutab az-zahra”, Ibn as-Sarajning “Masari al-ushoq” asarlari XI–XIII asrdagi xalq og‘zaki ijodiyotida “Layli va Majnun” turkum dostonlaridagi obrazlarning o‘sha davrdagi tahlili hisoblansa, Nizomiy Ganjaviy an‘anasiga ergashgan Amir Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Kotibi Turshiziy, Abdulloh Xotifiy, Badriddin Hiloliy, Shahobiddin Jomiy, Shayxim Suhayliy, Ali Ohiy, Xoja Imod Loriy, Xoja Hasan Xizrshoh, Zave Qozisi, Nosirxoja valadi Mansurxoja va yana bir qator ijodkorlar haqida ma’lumot beruvchi Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”³ asari XV asrdagi adabiyotshunoslik namunasi edi.

XX asr o‘rtalarida Yevropa adabiyotida I.Y.Krachkovskiyning “Arab adabiyotida “Layli va Majnun” dostonining ilk tarixi” (Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе)⁴, Y.E.Bertelsning “Arab hikoyalari asosida “Layli va Majnun” dostoni syujetini, Nizomiy va Navoiy

¹ Насир Хусрау. Сафар-наме. Книга путешествия. Перевод и вступительная статья Е.Э.Бертельса, Мос-Лен., 1933.

² Ибн Қутайба Абу Мухаммад Абдуллах ибн Муслим. Китаб ашши‘р ааш-шу‘ара. 2 т. Бэйрут. 1964.

³ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн тўртинчи том. Т.: “Фан”, 1998 й.

⁴ И. Ю. Крачковский. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе Избранные соч., М., 1956 г.

dostonlari talqini” (“Лейли и Межнун”, история арабского предания, версия Низами и поэма Навои)⁵ nomli tadqiqotlar keng ko‘lamli ilmiy ishlar edi.

Dastlabki o‘zbek adabiyotida “Layli va Majnun” qissalarining tarixiy taraqqiyoti, genezisi va ijodkorlar asarlarining tahliliy jihatdan o‘rganilishi quyidagi ijodkorlar tomonidan amalga oshirilgan: Natan Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi”⁶, “Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti”⁷, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning “Navoiy gulashani (Navoiy haqida maqolalar)”⁸, Abduqodir Hayitmetovning “Navoiy dahosi”⁹, “Navoiy ijodiy metodi masalalari”¹⁰, Olim Sharafiddinovning “Alisher Navoiy (Hayoti va ijodi)”¹¹, Aziz Qayumovning “Alisher Navoiy (Shoirning hayoti va ijoi haqida lavhalar)”¹², “Ishq vodiysi chechaklari”¹³, Axmedov T.ning “Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni”¹⁴, Dilnavoz Yusupovaning “O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri)”¹⁵, Shuxrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatovlarning “Navoiyshunoslik” (1-kitob)”¹⁶ kitoblari va Saida Narzullayevaning “Sovet Sharq xalqlari adabiyoti tarixida “Layli va Majnun” mavzusi” (Тема «Лейли и Меджнун» в истории литератур народов Советского Востока)¹⁷, Aftondil Erkinovning “Alisher Navoiy “Xamsa”si talqinining XV – XX asr manbalari”¹⁸ nomli doktorlik, Mamatqulova Xolidaning “Navoiyning

⁵ Е.Э.Бертельс. “Лейли и Межнун”, история арабского предания, версия Низами и поэма Навои. – Т.: “Литература и искусство Узбекистана”, 1940.

⁶ Natan Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Т.: “O‘qituvchi” nasahriyoti, 1965-y.

⁷ Natan Mallayev. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Т.: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 1974-y.

⁸ Oybek. Navoiy gulashani (Navoiy haqida maqolalar). – Т.: “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1967-yil.

⁹ Abduqodir Hayitmetov. Navoiy dahosi. – Т.: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 1970-y.

¹⁰ Абдукодир Хайитметов. Навоийнинг ижодий методи масалалари. – Т.: 1963.

¹¹ Olim Sharafiddinov. Alisher Navoiy (Hayoti va ijodi). – Т.: 1941-y.

Olim Sharafiddinov. Alisher Navoiy (Hayoti va ijodi). – Т.: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 1971-y.

¹² Aziz Qayumov. Alisher Navoiy (Shoirning hayoti va ijoi haqida lavhalar). – Т.: “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1976-y.

Alisher Navoiy (Shoirning hayoti va ijoi haqida lavhalar). – Т.: “Kamalak”, 1991-y.

¹³ Aziz Qayumov. Ishq vodiysi chechaklari. – Т.: G‘.G‘ulom, 1985-y;

¹⁴ Ахмедов Т. Алишер Навоийнинг “Лайли ва Межнун” дostonи. – Т.: Фан, 1970.

¹⁵ Dilnavoz Yusupova. O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). – Т.: Tamaddun, 2016-y.

¹⁶ Shuxrat Sirojiddinov va boshqalar. Navoiyshunoslik (1-kitob). Т.: “Tamaddun”, 2018-y.

¹⁷ С.Нарзуллаева. «Тема «Лейли и Меджнун» в истории литератур народов Советского Востока». – Т.: 1983.

¹⁸ Эркинов Афтондил Содирхонович. Алишер Навоий “Хамса”си талқинининг XV – XX аср манбалари. – Т.: 1998 й.

“Layli va Majnun”, Shekspirning “Romeo va Juleta” asarlarining qiyosiy tadqiqi”¹⁹ nomli nomzodlik dissertatsiyasi.

Abdulloh Xotifiy “Layli va Majnun” dostoni haqidagi dastlabki ishlar Sa’dulla Asadullayev tomonidan 1962-yilda yaratilgan bo’lsa, keyinchalik 1968-yilda nashr ettirilgan “Navoiy va adabiy ta’sir masalalari” to’plamidagi E.Shodiyevning “Navoiy va Xotifiy”, R. Orzuqulov va N. Komilovning “Fors-tojik adabiyotida Navoiyga izdoshlik tarixidan” maqolalari, 1989-yilda nashr ettirilgan “Alisher Navoiy va fors-tojik adiblari” asarlari, A. Abduqodirovning 2011-yilda chop etilgan “Alisher Navoiy ijodiyoti va ma’naviy merosning olamshumul ahamiyati. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari” nomli to’plamdagi “An’ana va izdoshlik” maqolasi, A. Abduqodirovning 2016-yilda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 5-sonida chop ettirilgan “Navoiy va Xotifiy “Layli va Majnun”lari maqolasi yoki shu ijodkor tomonidan jurnalning 2018-yildagi 1-sonida nashr ettirilgan “Navoiyning “Firoqnoma” tatabbusi” nomli maqolalari bu mavzu o’rganilishining davomi bo’ldi.

Yuqoridagi kitoblar, dissertatsiyalar, maqolalarni sinchiklab o’rganish asosida to’rtala buyuk shoir ijodidagi o’xshashlik va farqli tomonlarni bayon etish bilan birgalikda, Xotifiy dostonining o’ziga xos tomonlarini ko’rsatish ishimiz ko’lamini monografik planda namoyish etdi.

Tadqiqotning maqsadi. Sharq adabiyotidagi “Layli va Majnun” qissalari tarixi, o’rganilish xususiyatlari va Abdulloh Xotifiy asarining bu mavzudagi o’ziga xosligini ilmiy metodlar va usullarda ko’rsatish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari. Ishimiz ko’lamini his etgangan holda, dissertatsiyamiz mavzusini yoritish uchun quyidagi vaziflarni belgilab oldik:

✓ Sharq adabiyotida “Layli va Majnun” turkumidagi asarlarni o’rganish va ularni tadqiq etgan ijodkor va olimlar asarlaridan parchalar keltirish;

¹⁹ Mamatqulova Xolida. “Navoiyning “Layli va Majnun”, Shekspirning “Romeo va Juleta” asarlarining qiyosiy tadqiqi”. – Sam.: 2010-y.

✓ Fors-tojik shoiri Abdulloh Xotifiy “Layli va Majnun” dostonining manbalari tadqiqini o‘rganish va ular haqida to‘laqonli ma’lumot berish;

✓ Abdulloh Xotifiy “Layli va Majnun” dostonining syujeti va kompozitsion tuzilishini o‘rganish va boshqa ijodkor (Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy)lar dostonlariga taqqoslash;

✓ Asardagi obrazlar tizimini va o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rganish;

✓ Abdulloh Xotifiy “Layli va Majnun” dostonining transletiratsiyasi, ilmiy-tanqidiy matnini yaratish va dostonning o‘zbekcha parchalarini keltirib, tushinilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar va istilohlar lug‘atini shakllantirish;

Tadqiqotning obyekti. Abdulloh Xotifiy “Layli va Majnun” dostonining professor Sa’dulla Asadullayev boshchiligidagi ishchi guruh tomonidan 1962-yilda yaratilgan adabiy-tanqidiy matnini o‘rganish. Shuningdek, o‘zbek adabiyotida yaratilgan, “Layli va Majnun” dostonlari taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shgan kitob, monografiya va maqolalar.

Tadqiqotning predmeti. Abdulloh Xotifiy “Layli va Majnun” dostonining matniy tadqiqi va g‘oyaviy-badiiy talqinini amalga oshirish dissertatsiyamizning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada emperik tahlil, tahliliy-qiyosiy usul, germenevtik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ijodkorlardan: Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy va Abdulloh Xotifiy asarlarini sinchiklab o‘ranib, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli xususiyatlarni keltirish, Abdulloh Xotifiy asarining o‘ziga xos tomonlari va xamsanavislikdagi yangiliklarini ko‘rsatish; Natan Mallayev, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek, Abduqodir Hayitmetov, Olim Sharafiddinovning, Aziz Qayumov, N. Komilov, T. Axmedov, Dilnavoz Yusupova, Shuxrat Sirojiddinov, Olimjon Davlatovlar, Saida Narzullayeva, Aftondil Erkinov, Mamatqulova Xolida, E. Shodiyev, R. Orzuqulov va A.Abduqodirov kitoblari, monografiya va maqolalarini o‘rganib, xulosa chiqarish va umumlashtirish.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha quyidagi ilmiy ishlar e'lon qilingan:

1. Shodiyev Odiljon. Komil inson g'oyasining Majnun obrazidagi aksi // "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – T.: 2019-y. 315-318-b.
2. Shodiyev Odiljon. "Sharq adabiyotida "Layli va Majnun" turkumidagi asarlar va ularning o'rganilishi tarixi" // Modern scientific research journal. – Lon., 2020-y (Issue 13, february) page. 74-79.
3. Shodiyev Odiljon. Abdulloh Xotifiy "Layli va Majnun" dostonlarining manbalari tadqiqi // Modern scientific research journal. – Lon., 2020-y (Issue 13, february) page. 79-84.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, har biri ikkita fasldan iborat bo'lgan uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat. Ishning umumiy hajmi 101 sahifadan iborat.

I-BOB.

ABDULLOH XOTIFIY “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI VA SHARQ ADABIYOTIDA ASARLARNING QO‘LYOZMA VA NASHR NUSXALARI TADQIQI VA ILMIY TAVSIFI

I.1. Sharq adabiyotida “Layli va Majnun” turkumidagi asarlar va ularning o‘rganilishi tarixi.

Qadimdan Sharq xalqlari adabiyotida komil insonni tarbiyalashga qaratilgan juda ko‘plab asarlar va hikmatlar durdonlari butun dunyo madaniyatida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Tarixdan bizga ma’lumki, ota-bobolarimiz hayotida do‘stlik, sadoqat va eng avvalo, muhabbat mavzulari umrboqiy mavzular sirasiga kiritilgan. Shu sababli, bu hududlarda bu mavzulardagi har qanday asarlar sevib o‘qilgan. Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusi kabi keng tarqalgan boshqa bir ilohiy ishq qissasini topish qiyindir. Mana o‘n uch asrdirki, ushbu mavzuda adabiyot olamida she‘r va dostonlar bitib kelinadi.

Sharqda bu mavzuning kelib chiqishi haqida turli xil taxminlar mavjud. “Layli va Majnun” nomi ostidagi syujet XII asrgacha arab xalq adabiyotida ertak shaklida namoyon bo‘lgan. Keyinchalik bu mavzudagi asar Bobil (Iroq) adabiyotida nomi keltirib o‘tilsa-da, lekin asar haqidagi ma’lumotlar saqlanmagan.²⁰ XI asrning o‘rtalarida fors sayohatchisi Nosir Xusravga ko‘chmanchilar Toif (Saudiya Arabistonining g‘arbida joylashgan shahar) yaqinidagi Araviyada Layli yashagan qal’a xarobalarini ko‘rsatishganligini, shu bilan birgalikda, bu yerda ko‘chmanchi Amir qabilasidan Al-Mulavvahning o‘g‘li Qays Layliga oshiq bo‘lib, undan ayrilgandan so‘ng sahroda halok bo‘lganligi haqida hikoyani so‘zlab berishganini aytib o‘tgan.²¹ Keyinchalik og‘zaki shakldagi ertak

²⁰ Передисловие Е. Дунаевского к поэме Незами Гянцеви: Лейла и Меджнун, перевод А. Глоби, М., 1935, стр. 17.

²¹ Qarang: Насир Хусрау. Сафар-наме. Книга путешествия. Перевод и вступительная статья Е.Э.Бертельса, Мос-Лен., 1933, стр 173.

syujeti yozma adabiyot shaklida namoyon bo‘la boshladi.²² Quyidagi dastlabki yozma asarlarda Qays obrazini uchratish mumkin:

1. Ibn Qutayba Abu Muhammad Abdulloh ibn Muslim – “Kitob ash-shiru shuaro” (She’riyat kitobi). Bu asarda Qays obrazi ilk marotaba tilga olinganligini inobatga oladigan bo‘lsak, Qays oddiy inson obrazi sifatida shakllantirilib, obrazlar tizimida alohida e’tiborga olinmaganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.²³

2. Ali ibn al-Husayn al-Asfahoniy – “Kitob al-ag‘oniy” (Qo‘shiqlar kitobi). Bu asar “Kitob ash-shiru shuaro”dan afzal tomonlari shundan iboratki, Qays obrazi keng ko‘lamda, og‘zaki va yozma manbalardan kelib chiqilgan holda tasvirlangan.²⁴

3. Muhammad ibn Dovud az-Zahir o‘g‘li – “Kitab az-zahra” (Gullar kitobi). Bu asarda Qays obrazi haqida deyarli ma’lumot keltirilmasa-da, lekin Qays ismli shaxsga taxmin qilingan she’rlar mavjudligi qayd etilgan.

4. Ibn as-Saraj – “Masari al-ushoq” (Sevishganlar halokati) va boshqalar.

Shu bilan birgalikda o‘sha davr ijodkorlari xalq og‘zaki ijodida mavjud, Qays haqidagi she’rlardan parchalarni asarlariga kiritgan bo‘lsalar (Al-Mubarrat, Al-Vashshah, Ibn abd-Rabbih, Al-Qoliy va boshqalar), bir qator geograflar Qaysga tegishli deb hisoblangan she’rlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda obrazlarning ma’lum geografik hududga tegishli ekanligini aytishgan (Al-Bekri, Yoqut). Tarixchilardan Al-Qutubiy va Abul Mahosinlarining ham bu mavzudagi o‘rni e’tiborga molik bo‘lib, ulardan Yevropa adabiyoti vakillari dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘lishdi.²⁵

Badiiy adabiyotda bu qissa doston shaklida ilk bor Nizomiy Ganjaviy tomonidan 1188-yilda vujudga keldi. Nizomiy xalq orasida tarqalgan rivoyatlardan ijodiy foydalangan holda “Layli va Majnun” qissasini g‘oyaviy jihatdan

²² Игнатий Юлианович Крачковский. Избранные сочинения. Том II. Мос-Лен: Академии наук СССР, 1956. стр 588-561.

²³ Ибн Қутайба Абу Мухаммад Абдуллах ибн Муслим. Китаб ашши’р ааш-шу’ара. 2 т. Бэйрут. 1964.

²⁴ *Qarang*: Игнатий Юлианович Крачковский. Избранные сочинения. Том II. Мос-Лен: Академии наук СССР, 1956. стр 588-561.

²⁵ *Qarang*: 1. Al-Kamil. W.Right, Leiprig, 1864-1892; 2. Kitob Al-Muvashsha. Brunnnow, leyden, 1886; 3. Ал-Амали. 4-томное издание Египетской библиотеки в Каире. 1926 г; 4. 6-tomli tanlangan asarlar F.Wustenfeld leiprig 1866-1873.

mukammal va badiiy jihatdan yuksak asar darajasiga ko'tardi. Keyinchalik Nizomiy an'anasini davom ettirgan bir qancha, Sharq adabiyotida, salaflar paydo bo'ldi. Bular: Amir Xusrav Dehlaviy ("Majnun va Layli"), Jamoliy ("Mahzun va Mahbub" nomi ostida "Layli va Majnun" dostoniga tatabbu'), Ashraf Marog'iy ("Ishqnoma" nomi ostida 1438-yilda yaratilgan bo'lib, bu ham tatabbu'), Abdurahmon Jomiy, Kotibi Turshiziy ("Layli va Majnun"), Abdulloh Xotifiy ("Layli va Majnun"), Badriddin Hiloliy ("Layli va Majnun"), Shahobiddin Jomiy ("Layli va Majnun"), Shayxim Suhayliy, Ali Ohiy, Xoja Imod Loriy, Xoja Hasan Xizrshoh, Zave Qozisi, Nosirxoja valadi Mansurxoja va yana bir qator ijodkorlar 100 dan ortiq bu dostonga javob tariqasida o'z asarlarini yaratishadi. Alisher Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida o'z davrigacha 12 ta "Layli va Majnun" dostoniga javob yozganlarning ism sharifini keltirib o'tadi²⁶. Bu ijodkorlarning asarlarida Qaysning nomi o'zgartirilgan bo'lsada, Nizomiy Ganjaviy an'anasi asosida yozilgan va hamohang yaratilishi odat tusiga aylangan.

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni turkiy tilda ushbu mavzuda yaratilgan ilk doston bo'lib, Navoiy uni yaratishdan avval arab rivoyatlari bilan bir qatorda Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog'iy va Shayxim Suhayliy dostonlarini chuqur o'rganadi. U xamsanavislikda o'zigacha mavjud an'analardan ijodiy foydalangan holda o'z dostoniga yangicha ruh bag'ishlaydi, o'z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, "afsonaga yangi libos kiygizadi".

Shu bilan birgalikda, turkiy adabiyotda Navoiydan so'ng "Layli va Majnun" dostonini yuksak cho'qqiga ko'targan inson Muhammad Fuzuliy bo'ldi. Uning asarida bir qancha o'ziga xosliklarga guvoh bo'lamiz. Misol uchun, asar boshdan oyoq masnaviy yo'lda yozilmaganligidir. Undan g'azallar, murabba'lar o'rin olgan. G'azallarda Layli va Majnun faryodlari, Majnuning Layli yonidagi o'zini tuta olmay, o'z sevgisini izhor etishi, yoki Majnuning otasi Majnunni Hajga eltganida Ollohga qilgan munojoti, bir so'z bilan aytganda, asar qahramonlarining xatti-harakatlari tezlashgan, kulminatsiya darajasiga etgan holatlarini ifodalash

²⁶ Qarang: Abdurahmon Jomiy, Hoja Hasan Xizrshoh, Ahmad Shayx Suhayliy, Mavlono Abdulla, Xoja Imod, Ashraf Marog'iy Hazrat Shayx – Abdulla Muhammad Ilyosa ibn Yusuf ibni Zakiy Muayid Nizomiddin, Mavlona Hiloliy, Mavlono Safiy va boshqalar.

uchun shoir shu usuldan foydalanadi. Bu esa asarning qiymatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yozma shakldagi dostonlarning ko'pligi hamda asar g'oyasining yetukligidan dostonlar xususiyatini va kelib chiqish genezisini o'rganishga doir Yevropa adabiyotida XX asr o'rtalarida yaratilgan tadqiqotlar ham alohida yangillik sifatida vujudga keldi. Xususan, I.Y.Krachkovskiyning "Arab adabiyotida "Layli va Majnun" dostonining ilk tarixi" (Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе)²⁷ nomli tadqiqoti dostonlar syujetining kelib chiqishi haqida dastlabki manbalar umumlashmasi sifatida maydonga chiqqan bo'lsa, Y.E.Bertelsning "Arab hikoyalari asosida "Layli va Majnun" dostoni syujetini, Nizomiy va Navoiy dostonlari talqini" ("Лейли и Межнун", история арабского предания, версия Низами и поэма Навои)²⁸ nomli tadqiqoti Nizomiy va Navoiy asarlarining qiyosiga bag'ishlangan dastlabki keng ko'lamdagi ilmiy tadqiqot edi.

Yuqoridagi fikrlarni sinchiklab o'rganish davomida adabiyotshunos olimi Saida Narzullayevaning "Layli va Majnun" dostonlariga tegishli bo'lgan ilmiy adabiyotlarni ikki turga bo'lishi, ularning birinchisini doston tarixi bilan qiziqib, ularni kelib chiqish genezisini o'rgangan tadqiqot ishlari, ikkinchi guruhini dostonlarning badiiy, ilmiy, nazariy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda dostonning tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlar deb atashiga asos borligiga amin bo'lamiz.²⁹ Bu fikr o'zbek adabiyotshunos olimlarini tasniflashda ham qo'l kelishi tabiiy. Dastlabki o'zbek adabiyotida "Layli va Majnun" qissalarining tarixiy taraqqiyoti, genezisi va ijodkorlar asarlarining tahliliy jihatdan o'rganilishi quyidagi ijodkorlar tomonidan amalga oshirilgan:

1. Natan Mallayev.³⁰ Olim Sharq adabiyotida yaratilgan "Layli va Majnun" asarlari genezisiga to'xtalar ekan, I.Yu.Krachkovskiy va boshqa ijodkorlar

²⁷ И. Ю. Крачковский. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе Избранные соч., М., 1956 г.

²⁸ Е.Э.Бертельс. "Лейли и Межнун", история арабского предания, версия Низами и поэма Навои. – Т.: "Литература и искусство Узбекистана", 1940.

²⁹ С.Нарзуллаева. Тема «Лейли и Межнун» в истории литератур народов Советского Востока. – Т.: «Фан», 1983.

³⁰ Natan Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. – Т.: "O'qituvchi" nasahriyoti, 1965-y. Natan Mallayev. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Т.: "G'afur G'ulom" nashriyoti, 1974-y.

tomonidan keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirishdan tashqari, xamsanavistlar ijodiga ham alohida to'xtalib o'tadi. Dastlabki yozma "Layli va Majnun" dostonini yaratgan Nizomiy Ganjaviy an'anasidagi o'ziga xoslik, Xusrav Dehlaviy va boshqa salaflarning asar voqealar rivojida ta'sir masalari haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birgalikda ijodkor Navoiy ijodiga to'xtalar ekan, shunday degan xulosaga keladi: "... Navoiy o'z oldiga qo'ygan ikki masalani – hayotiy mazmun va til masalasini katta muvaffaqiyat bilan hal etdi, "Layli va Majnun"ning tarixiy takomilida yangi davr boshlab berdi..."³¹

2. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. Ijodkor asarida³² Navoiy ijodidagi "Layli va Majnun" dostonining badiiy tahlili aks ettirilgandir. Ijodkor shoir asarlari tahlilini boshqa asarlari tahlili jarayonida voqeariy tarzda mazmunini keltiradi va obrazlardagi ijodkor mahoratiga baho bergan holda: "*Farhod va Majnun, Shirin va Layli ideal qahramonlar. Ular hayotiy bachkanaliklar bilan o'ralmaydilar, maishiy faktlarga ko'milmaydilar. Ularning shoirona yorqinligiga, ideyaviy ulug'vorligiga ko'lka tashlovchi har nav tasodifiy chizg'ilar, tor maishiy sharoitlar shoir tomonidan ustalik bilan o'chiriladi...*"³³ – deya o'z xulosasini keltiradi.

3. Abduqodir Hayitmetov. Ijodkor Navoiy ijodida "Layli va Majnun" dostonining o'rni haqida gap yuritarkan, davr tazyiqlarini inobatga olishga, ishq-muhabbat mojarolarini davr voqealariga moslashtirishga (Navoiy davrini XX asrning 70-yillariga qiyosan o'rganishga) majbur bo'lganligiga guvoh bo'lamiz: "*Alisher Navoiy o'z qahramonlarining ayanchli taqdiri orqali o'z davridagi ezilgan xalq ommasining taqdirini ham aks ettirgan va bunday o'rinlarda xalq ommasining keskin noroziligini ham ifoda etgan...*"³⁴

4. Olim Sharafiddinov.³⁵ Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida fikr yuritgan ijodkor, shoir hayot yo'li bilan birgalikda, asarlarining tahliliga ham alohida boblar

³¹ Natan Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: "O'qituvchi" nasahriyoti, 1965-yil. 464-bet.

³² Oybek. Navoiy gulashani (Navoiy haqida maqolalar). T.: "Toshkent" badiiy adabiyot nashriyoti, 1967-yil. 42-45, 89, 98-111, 122-124 betlar.

³³ O'sha asar. 89-bet

³⁴ Abduqodir Hayitmetov. Navoiy dahosi. T.: "G'afur G'ulom" nashriyoti, 1970-y. 32-bet; Навоийнинг ижодий методи масалалари. – Т.: 1963.

³⁵ Olim Sharafiddinov. Alisher Navoiy (Hayoti va ijodi). T.: 1941-y. Olim Sharafiddinov. Alisher Navoiy (Hayoti va ijodi). T.: "G'afur G'ulom" nashriyoti, 1971-y.

ajratadi. “Layli va Majnun” nomi ostidagi bobda quyidagi fikrlarni bayoniga guvoh bo‘lamiz: *“Layli va Majnun” mashhur arab afsonasi syujetida yozilgan dostonidir. Shoir unda bir-birini sevgan oshiq-mashuqning boshidan kechirgan qayg‘uli voqealarni, ularning halokatga uchrashlarini ... yozar ekan, o‘z qarshisida turgan vazifalarni shu misralarda ochiq belgiladi:*

*Yozmoqchi bu ishq jovidona,
Maqsudim emas edi fasona.
Mazmuniga bo‘ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli...*³⁶

5. Aziz Qayumov. Ijodkor Navoiy yaratgan “Layli va Majnun” asaridagi Qays obraziga alohida to‘xtalganligiga guvoh bo‘lamiz. Ijodkor Qaysning dunyoga kelishi va ta‘lim olishidan tortib, Layliga oshiq bo‘lib qolgan “Majnun”ga aylanishini alohida ta‘kidlaydi va quyidagicha xulosa yasaydi: *“Dostonning yakulovchi bobida Navoiy bu g‘am dostonini “yig‘lay-yig‘lay tugatdim” deb xabar qiladi, dardman, ishqli kishilarni ulug‘laydi, yasama, qalbaki ishq egalarini qoralaydi... Shoir o‘quvchilarining ishq g‘ami bilan shod bo‘lishlarini va shunda uni ham yod etishlaridan umidvor bo‘ladi”*.³⁷

6. Saida Narzullayeva. “Sovet Sharq xalqlari adabiyoti tarixida “Layli va Majnun” mavzusi” (Тема «Лейли и Меджнун» в истории литератур народов Советского Востока) nomli doktorlik dissertatsiyasi muallifi, dostonning kelib chiqish tarixidan tortib obrazlar qiyosi, syujet va kompozitsiyon tuzilishgacha bo‘lgan barcha ma‘lumotlarni o‘sha davr ruhida aks ettirgan bo‘lsada, lekin hozirgi kunda ham o‘zining salmog‘ini yo‘qotmaganligiga amin bo‘lamiz.

7. Dilnavoz Yusupova. Navoiy ijodi bilan davomli shug‘ullangan ijodkor o‘zining “O‘zbek mumtoz milliy uyg‘onish adabiyoti” (Alisher Navoiy davri) nomli o‘quv qo‘llanmasida “Layli va Majnun” dostoniga alohida bob ajratib, unda dostonning kelib chiqish tarixi bilan birgalikda uch buyuk daho: Nizomiy

³⁶ Olim Sharafiddinov. Alisher Navoiy (Hayoti va ijodi). T.: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 1971-y. 148-bet.

³⁷ Aziz Qayumov. Alisher Navoiy (Shoirning hayoti va ijoi haqida lavhalar). – T.: “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1976-y. 85-b; Ishq vodiysi chechaklari. T.: G‘.G‘ulom, 1985-y; Alisher Navoiy (Shoirning hayoti va ijoi haqida lavhalar). – T.: “Kamalak”, 1991-y.

Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy dostonlarini tahlil maydoniga tortadi³⁸.

6. Shuxrat Sirojiddinov. Olimning “Tamaddun” nashriyoti tomonidan 2018-yilda chop ettirilgan “Navoyishunoslik” nomi ostidagi birinchi qism darsligini³⁹, shartli ravishda, Dilnavoz Yusupovaning “O‘zbek mumtoz milliy uyg‘onish adabiyoti” (Alisher Navoiy davri) nomli o‘quv qo‘llanmasining davomi sifatida nashr ettirilgan, desak adashmaymiz. Darslikda Sharq adabiyotidagi xamsanavistlar asarlari haqida, Nizomiy Ganjaviy salaflarining qanchasi “Xamsa”ning qaysi dostonlariga javob yozganligi haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lamiz. “Layli va Majnun” dostonida muallif badiiy niyatining ifodalanishi” nomli bobda dostonning pok va yuksak muhabbat ifodasi ekanligi, uning tarkibiy tuzilishi, g‘oyaviy mundariyasi va timsollar olami, bosh qahramonlar xususiyatlari haqida fikr yuritadi.

Xulosa qilib aytganda, bu ijodkorlarning asarlarida “Layli va Majnun” dostonining o‘ziga xos bayoni, ijodiy yondashuv va badiiy mahoratning o‘ziga xos shakli yuzasidan tahlil amalga oshirilganligiga guvoh bo‘lamiz.

I.2. Abdulloh Xotifiy “Layli va Majnun” dostonlarining manbalari tadqiqi.

Abdulloh Xotifiy 1445/50-1521-yillar oraliqida yashab ijod etgan shoir. Dastlabki ma’lumotlar Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” taskirasida bayon etilgan bo‘lib, unda Navoiy Xotifiyning “Xamsa”sini ta’kidlab o‘tgandan so‘ng, *“She’ri el orasida bag‘oyat mashhur va rivoji nomaqdurdur (ravnaqi cheksizdir)”*⁴⁰ deya shogirdini mamnun bo‘lib ta’riflaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur esa u haqda: *“Abdulloh masnaviygo‘y edi. Jomdindur. Mulloning (Abdurahmon Jomiy) xoharzodasi bo‘lur, taxallusi “Xotifiy” edi...*

³⁸ Dilnavoz Yusupova. O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). T.: Tamaddun, 2016-y.

³⁹ Darslik muallifi bir kishi tomonidan nashr ettirilmasdan, Dilnavoz Yusupova, Olimon Davlatov nomlari ham nashr etilgan.

⁴⁰ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис // Мукаммал асарлар тўплами. 13-жилд. Т.: 1997. 77-бет.

“Iskandarnoma” muqobalasida “Temurnoma” aytibdur”⁴¹ degan soʻzlarni bitib qoldirgan. Xondamirning *“Makorim ul-axloq”* kitobida ham shoir haqida fikrlar mavjud.⁴² Koʻrinib turibdiki, shoir ijodi oʻz davrida ham juda mashhur boʻlgan.

Mavlono Abdulloh Xotifiy *“Layli va Majnun”* masnaviysi uning birinchi dostonidir. Bu doston ham shoirning boshqa adabiy-ijodiy mahsullari kabi oʻzining tanqidiy nashriga XX asrning 2-yarmiga qadar ega emasdi. 1788-yilda Ser Vilyam Jones uni Kalkuttada chop ettirgan. Keyinchalik 1863-yilda Laknavada toshbosma holida chop etirildi. Garchi, bu asar Xotifiyning birinchi dostoni boʻlsa-da, shoir dostonlarining eng yaxshisi hisoblangan *“Layli va Majnun”* dostoni bu turkum dostonchiligining keyingi tarixida oʻziga xos taʼsir koʻrsatdi.

Xotifiyning *“Layli va Majnun”* dostoni qoʻlyozmalari jahonning turli mamlamatlari kutubxonalarida saqlanadi. Birgina Moskva, Tblisi, Toshkent va Dushanbe shaharlaridagi kutubxonalarda bu dostonning 23 nusxasi mavjud. Jumladan, Tojikiston Fanlar Akademiyasi va Sharqshunoslik shoʻbasi(boʻlimi)da 2665, 1235, 888/3, 299, 132, 2452, 1994 raqamlari ostida 7 nusxa; Tojikiston davlat universiteti kutubxonasida T-87 nomi ostida 1 nusxa; Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi qoshidagi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondida 1360/1, 1775/1, 1321, 3778/2, 7832/2, 7509/1, 3774/2 raqamlari ostida 7 nusxa; Gruziya Fanlar Akademiyasi qoʻlyozmalar fondida P-279, P-279, P-155, P-239 raqamlari ostida 4 nusxa; Lelingraddagi qoʻlyozmalar fondida A 56, A 21, B 131 va C 1281/2 raqamlari ostidagilari shular jumlasidandir.

Bu kitob nusxalari xorijiy kutubxonalar kartoteykasida ham koʻplab qayd etilganligini yuqorida taʼkidlab oʻtdik. Bular: 4 nusxasi Britaniya muzeyida 3316, 2867/3, 10.586 va 16.801 raqamlari ostida; 10 nusxasi Bodlean kutubxonalarida 216, 35, 28, 34, 49, 232, 122, 126, 89 va 249 raqamlari ostida; Hindiston Offis kutubxonasida 1446, 1465, 1066, 3083, 1722, 1076, 561, 1173, 1061, 2752 va 2243 raqamlari ostida saqlanadi.

⁴¹ Ibrohim Haqqulov. Oʻzbek tasavvuf sheʼriyatining oʻrganish muammosi. Kh-davron.uz. 14.03.2020-y.

⁴² Xondamir. Makorim ul-axloq. T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1967-y. 56-bet.

Shuningdek, asarning ko‘plab boshqa nusxalari Ibni Yusuf, Sheroziy (Eron) va boshqa bir qancha kutubxonlar ro‘yxatida qayd etilgan.

Hozirgi kunda umumiy holda Xotifiy “Layli va Majnun” dostonining 41 nusxasi mavjud. Olimlar tomonidan bu matnlarni o‘rganish asnosida eng sara 4 matndan foydalanib, professor Sa’dulla Asadullayev boshchiligidagi ishchi guruh, 1962-yilda Dushanbe shahrida adabiy-tanqidiy matn yaratilgan. Quyida shu nusxalar haqida ma’lumotlar keltiramiz:

1. 3316 raqamli nusxa. Bu nusxa ko‘rsatilgan raqam ostida Britaniya muzeyida saqlanadi. Ko‘chirma Xotifiy masnaviysining eng qadimiysi va yaxshisi edi. Nusxa Xotifiyning hayotiylik davrida, ya’ni 892-hijriy yilning 5-ramazon oyida, Ali binni Nuh nomli kotib tomonidan Hirotda ko‘chirilgan. Shuning uchun bizga ma’lum bo‘lgan bu nusxadan adabiy-tanqidiy matn sifatida foydanilgan.

2. 2867 raqamli nusxa. Bu nusxa ham yuqoridagi raqam ostida Britaniya muzeyida saqlanadi. Muzey kartotekasi ma’lumotiga muvofiq, bu nusxa shoirning to‘rt dostonini o‘z ichiga olgan bo‘lib, 1500-yilda ko‘chirib yozilgan. Nusxani ko‘chirgan kotib ismi Sulton Muhammadnur (XV asrning mashhur, xushnavist xattotlaridan sanaladi) deb qayd etgan.

3. 1360/2 raqamli nusxa. Bu nusxa O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida shu raqam ostida saqlanadi. Qo‘lyozma ayrim saqlanishdagi kamchiliklardan xoli bo‘lmasa-da, lekin dostonlarning sara nusxasi sanaladi. Qo‘lyozma hajmi 19,5 x 12,5 sm va varoqlari soni 153 tani tashkil etadi. Qo‘lyozmaning har sahifalarida 16 bayt she’r joy olgan. Kitob muqovasining ranggi qizg‘ish jigar rangda bo‘lib, muqovasi sah Hoflikning mashhur qizil charmidandir. Kitobning asl qog‘ozi XV va XVI asrlardagi O‘rta Osiyo va Xuroson qog‘ozidir. Ta’mirlanganda qo‘shilgan kitobning oldingi 3 sahifasi Qo‘qon qog‘ozidan va 2 va 3-varaqlarida o‘zbekcha she’rlar yozilgan. Kitobning yozuvi – chiroyli nasta’liq yozuvida. Qo‘lyozma kotibi ma’lum emas, ammo ko‘chirilgan yili kitobning ikki joyida qayd etilgan. Birinchi marta 101-betdagi varoqda, kotibning o‘z yozuvi bilan yozilgan: “*Tamomlandi ruboiy chorshanba kunida, o‘n beshinchi zulqa’da, 925-yilda (1519-yilning 10-noyabrida)*”; ikkinchi

marta nusxa oxirida, 153 varoqda shunday yozilgan: “*Tamomlandi bu nusxa, yakshanba kunida, 925-yilning 12-zulqa’dasida (1519-yilning 7-noyabrida)*”. Shu tariqa bu nusxa ham shoirning tiriklik davrida ko‘chirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Bu nusxada Xotifiyning “Layli va Majnun”iga qo‘shimcha Sa’diy va Jomiyning she’rlari (62-64 betlar), Umar Xayyom ruboiylari (64-102 betlar), nazmiy parchalar Shayx Attordan (102-104 betlar), Abdiyning “Bahoriyot”i (120-127 betlar), “Sad vasiyati Luqmoni Hakim” (“Luqmoni Hakimning yuz vasiyati”) (127-130 betlar), Nisoriy, Binoiy, Hasan Dehlaviy, Kamoli Xo‘jandiy, Husayn Boyqaro she’rlari (130-135 betlar), Shayx Nizoriyning “Ushturnoma” (“Tuyanoma”)si (135-153 betlar) joy olgan.

4. 2665 raqamli nusxa. Bu nusxa Tojikiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik bo‘limi va adabiy meros kutubxonasida saqlanmoqda. Qo‘lyozma hajmi 19,6 x 14,8 sm va varoqlari soni 26 tadir. Qo‘lyozmaning har sahifasida 38 bayt she’rga joy berilgan.

5. 1775/1 raqamli nusxa. Nusxa shu raqam ostida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Bu nusxada Xotifiyning “Layli va Majnun” (1-74 betlar) tashqari Safoiy devoni (74-80 betlar) ham joy olgan.

Kitob o‘lchami 23,5 x 15 sm va uning qalinligi 2,4 smdan iborat. Muqovasining rangi qora bo‘lib, atrofidagi muqova va qolip qismi ostida qizil charmdan iborat. Kitobning qog‘ozi XVI asrlardagi O‘rta Osiyo va Xuroson yozuv qog‘ozidir. Har sahifada 13 bayt she’rga o‘rin berilgan.

Kitobning beti juda chiroyli, 1- va 2-varoqlari qizil, ko‘k, sariq, zarhal ranglar bilan bezalgan. Kitob matni atrofida ko‘k va sariq rangdan iborat hoshiya chizilgan bo‘lib, har bir sarlavha qizil rang bilan yozilgan. Kotibi Hoji Muhammad ibn Muhammad Buxoriy bo‘lib, yozilish tarixi hijriy 1007-yil (Milodiy 1598-1599). Kitob qayta ta’mirlangan. 1-, 2-, 3-, 9-, 10-, 11-, 15-, 18-, 19-, 20-, 27-varoqlar va kitobning oxirgi bir necha varog‘i mohirlik bilan qayta tiklangan. 4-5 va 8-9 varoqlarga dog‘ tushgan bo‘lsa ham, matn zararlanmagan. 6-, 7-, 15- varoqlar hoshiyasida va bo‘sh bo‘lgan 16-a betda har xil xatlar yozilgan. 39-, 42-, 53-

betlarning pastki tomoni uzulib tushgan va 17-varoq matndan ajralib, yo‘q bo‘lish holatida.

Nusxa suratlar va miniaturalardan iborat bo‘lib, 16-, 17-a, 39-, 42-, 53-a, va 61-a varoqlarda go‘zal rasmlar mavjud.

6. A.21 raqamli nusxa. Bu nusxa Moskva davlat universiteti Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanadi. Kitob hajmi 17,8 x 11 sm va uning qalinligi 1,2 sm.dan iborat. Kitob jildi qora rangda bo‘lib, 30 baytli 70 sahifaga ega. Kitob – nastaliq yozuvida. Sarlavhalar aniq yozilgan, ko‘chirilgan sanasi aniq emas.

Doston 2-varoqdan boshlanadi. Kitob qayta tuzatilgan, bu holni 10-, 12-, 31-, 32-, 34-varoqlardan yaxshi bilish mumkin. 3-varog‘ida qora dog‘ tushgan bo‘lib, buning natijasida tepadan 6-satrini o‘qib bo‘lmaydi.

7. P – 238 nusxasi. Bu nusxa zikr etilgan belgisi bilan Gruzuya Fanlar Akademiyasi qo‘lyozmalar institutida saqlanadi. Bu nusxada sarlavha yo‘q, ammo sarlavha o‘rni bo‘sh qoldirilgan.

Yuqorida keltirib o‘tgan nusxalar farqi uch qismdan iborat:

1. Sarlavhalar farqi.
2. Ilovalardagi baytlar farqi.
3. Ayrim so‘z qo‘llash bilan bog‘liq farq.

Shu bilan birgalikda ijodkor asarlarini o‘rganish XX asrning 2-yarmidan yangi pog‘onaga ko‘ratilganligini yuqoridagi fikrlarimizdan ham bilish mumkin. Negaki, bu davrda ijodkor asarlarining adabiy-tanqidiy matnlari tayyorlana boshlandi. 1486-yilda yaratilgan, ijodkorning birinchi dostoni – “Layli va Majnun”ning adabiy-tanqidiy matnini yaratgan ijodkor Sadulla Asadullayev (1962-yilda yaratildi) bo‘ldi. Keyinchalik bir qancha adabiyotshunoslar tomonidan ijodkor asarini o‘rganishga harakat boshlandi. Jumladan, 1968-yilda nashr ettirilgan “Navoiy va adabiy ta’sir masalalari” to‘plamidagi E. Shodiyevning “Navoiy va Xotifiy”, R. Orzuqulov va N. Komilovning “Fors-tojik adabiyotida Navoiyga izdoshlik tarixidan” maqolalari, 1989-yilda nashr ettirilgan “Alisher Navoiy va fors-tojik adiblari” asarlari, A. Abduqodirovning 2011-yilda chop etilgan “Alisher Navoiy ijodiyoti va ma’naviy merosning olamshumul ahamiyati.

Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari” nomli to‘plamdagi “An’ana va izdoshlik” maqolasi, A. Abduqodirovning 2016-yilda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 5-sonida chop ettirilgan “Navoiy va Xotifiy “Layli va Majnun”lari maqolasi yoki shu ijodkor tomonidan jurnalning 2018-yildagi 1-sonida nashr ettirilgan “Navoiyning “Firoqnoma” tatabbusi” nomli maqolalari shular jumlasidandir. Bu kitob va maqolalarda ijodkor shaxsiyati bilan birgalikda, u yozgan asarlarning ko‘lami va Sharq adabiyotidagi ta’siri, Navoiy va Xotifiy ijodidagi o‘xshashlik va o‘ziga xoslik, xamsanavistlik an’anasidagi ijodkor asarlarining o‘rni va ahamiyati kabi masalalar to‘laqonli bayon etilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘z davrida ham, qolaversa, hozirgi zamon adabiyotshunosligida ham ijodkor asarlariga e’tibor ma’lum darajada yuksak ekanligi va xamsanavistlik an’anasida o‘ziga xos yechim va ko‘lam kasb etgan asarlari salmog‘i Sharq xalqlari adabiyotida, qolaversa, Yevropa adabiyoti vakillari orasida ham mashhur bo‘lganligini yuqoridagi ma’lumotlardan ham yaqqol bilish mumkin.

II BOB.

XOTIFIY “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI ADABIY AN’ANA MAXSULI VA O’ZIGA XOS BADIY IJOD NAMUNASI SIFATIDA

II.1. Asar syujeti va kompozitsion tuzilishi qiyosiy tadqiqi.

Insonni ulug‘lovchi, uning ruhiy dunyosini boyituvchi, uning insoniylik martabasiga munosib etuvchi omillardan biri sevgi va vafodorlik tuyg‘ularidir. Sevgi bor joyda yovuzlikka o‘rin bo‘lmaydi, sevuvchi qalb faqat ezgulikka moyil bo‘ladi. Shu sababli, Sharq adabiyotida go‘zallikka, poklikka va ularning markazi bo‘lgan Ollohga bo‘lgan ilohiy muhabbat kuylanib kelingan.

Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusi kabi keng tarqalgan boshqa bir ilohiy ishq qissasini topish qiyindir. Mana o‘n uch asrdirki, ushbu mavzuda adabiyot olamida she‘r va dostonlar bitib kelinadi. Shunday mavzuga qo‘l urgan buyuk mutaffakirlar Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy va Fuzuliy asarlari qatorida Abdulloh Xotifiy asari ham o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy jozibasi bilan ajralib turadi.

Nizomiy Ganjaviy 1170-1204 yillar oralig‘ida 5 ta doston yaratadi. Shoir vafotidan so‘ng, dostonlar yaxlit bir to‘plamga birlashtiriladi. “Panj ganj”, keyinroq esa “Xamsa” deb atala boshlandiki, bu birlashtirilish keyinchalik xamsanavistlikni ushlab turgan tirkak, ya‘ni “qolip”ga aylanadi. Nizomiy dostonlari “Maxzan ul-asror”, “Xusrav va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Haft paykar”, “Iskandarnoma” kabi nomlar bilan atalsa-da, keyinchalik har bir xamsanavis ijodkor mavzudan chiqib ketmagan holda, bu nomni o‘zlari istaganday tanlashadi. Bu asarlar rivoji turlicha tusda davom etsa-da, ular ichida alohida mavqega egaligi, albatta, ilohiy sevgi mavzusiga atalganidir. Shu sababli “Layli va Majnun” dostoni Nizomiy “Panj ganj”ida alohida mavqeni egallagan. Xuddi shunday Alisher Navoiy, Fuzuliy va Xotifiy ijodida ham bu asarlar shu mavzu sirasiga kirishi bilan ahamiyatlidir.

Nizomiy Ganjaviy an'anasi asosida yozilgan bu asarlarga boshqa xamsanavistlar dostonlarining hamohang yaratilishi odat tusiga aylandi. Nizomiy Ganjaviy bu asarni *hazaji musaddasi axrabi maqbuza mahzuf* (ruknlari va taqte'si: maf'ulun foilun fauvlun – – V/ V–V– / V – –) vaznida yozadi. Xuddi shunday Navoiy, Fuzuliy, Xotifiy va boshqa “Layli va Majnun”navislar ham o'z asarlarini aynan shu vaznda yaratishdi.

Muqaddas kitoblarda Olloh butun yer yuzini yaratib, Odamga barcha o'n sakkiz ming olamning hayvonot-u navodot, ins-u jin, o'simliklari nomini o'rgatgan deyiladi. Shu sababli, Sharq adabiyoti qadim-qadimda har bir dostonning boshlanmasida Ollohnin nomiga hamd-u sanolar aytilgan. Bu an'ana keyinchalik yaratilgan asarlarda, shu jumladan, “Xamsa” tarkibiga kiruvchi asarlar boshlanmasida ham aks etgan. Bu qism “hamd” deb atala boshlandi. Shu o'rinda Abduqorid Hayitmetovning ushbu fikrini eslab o'tishimiz o'rinlidir: *“Bu dostonning asosiy g'oyasi ham, qahramonlari ham, syujeti ham Nizomiyda qanday bo'lsa, Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy va boshqalarda ham shundaydir. Shunga qaramay, bu avtorlarning hammasi original asar yozgan. Chunki bu qissani har qaysi san'atkor o'zi yashagan tarixiy sharoitdan kelib chiqib, o'z individual stili va shoirlik temperamenti bilan kuylagan”*.⁴³ Yuqoridagi fikrlardan shuni bilsak bo'ladiki, Nizomiy asarlari kompozitsion tuzilishi, shu jumladan, Navoiy, Fuzuliy va Xotifiy asarlari kompozitsion tuzilishida ham hamd qismi alohida e'tirofqa sazovordir.

Nizomiy Ganjaviyning “Layli va Majnun” dostonida hamd qismni shunday misralar bilan boshlaydi:

*Ey, nominga ibtido etib men,
Noming-la bu nomani bitib men.
Ey, yoding erur anisi jonim,
Juz nomingi aytmagay zabonim.* ⁴⁴

⁴³А. Ҳайитметов. Навоийнинг ижодий методи масалалари. – Т.: 1963. 117-6.

⁴⁴Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. Форсийдан Олимжон Бўриев таржимаси. Техрон.: Ал-Худо, 2005. 5-6.

Ya'ni: bu nomani (asarni) yozishdan oldin nomingga ibodat qildim, jonim yoding bilan tirik, tilim esa nomingni aytishga ojizdir, – deydi shoir. Keyingi misralarda esa, “agarda, muammoga duch kelsam, sening isming bu muammolarning kalitidir”, – deydi.

Fuzuliyning “Layli va Majnun”ida bu soʻzlar tasviriga zid holda qiyos keltiradi. Shoir insonlar yodingni eslash bilan zavqlanadi, amallaring kaliti isming boʻlishi bilan birgalikda ganj (xazina) hosil qiluvchi tilsim soʻzidir va shu tilsimni yopib qoʻyuvchi kalit ham oʻzidir, deya tilga oladi. Agarda shu kalit esdan chiqarilsa, xazina yoʻqlikka yuz tutganidek, sening nomingni unutgan odam oʻzligini yoʻqotadi degan xulosa chiqaradi:

*Ey munisi ahli zavq yoding,
Avbobi amal kalidi oding.
Ey ganji ato tilismi isming,
San ganji nihon, janon tilisiming!...*⁴⁵

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida ham yuqoridagi shu fikrlarga hamohang tarzda Olloh madhi keltiriladi:

*Ey yaxshi oting bila sarogʻoz,
Anjomigʻakim etar har ogʻoz.*⁴⁶

Alisher Navoiyning bu misralar bilan hamd qismni boshlar ekan, Olloh nomi barcha ezgu ishlarning boshlanishi ekanligi, inson aqli bosh-oxirini bilolmasligini taʼkidlab, faqatgina mazmunan emas, balki shaklan ham oʻziga xoslikka yoʻl qoʻyadi. Misol tariqasida shuni keltirish mumkinki, Nizomiy ham, Fuzuliy ham hamd qismni bir bob ichiga olgan boʻlishsa, Navoiy bu qismni ikki bob tariqasida gavdalantiradi.

Abdulloh Xotifiy “Layli va Majnun” dostonining kompozition koʻrinishi ham anʼanadan mosuvo emas. Ijodkor Navoiy anʼanasiga ergashar ekan, hamd qismni ikki bob shaklida namoyon etganligiga guvoh boʻlamiz.

Ин номе, ки хома кард бунёд,

⁴⁵ Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 6-б.

⁴⁶ Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 2-б.

Тавқеи қабули рўзияш бод.
(*Bu kitobni qalam bunyod etdi*
Shu nomani Alloh ulug' etib boshqalarga yaxshilik yetkazsin.)
Туғрош ба номи подшоҳӣ
К-ӯрост чу ариш боргоҳӣ.⁴⁷
(*Bu nomani boshlashga sababchi podshoh (Alloh)*
makon-u manzili arsh bo'lgandir.)

deya ishq bayonini ulug'lab yozar ekan, ijodkor, Alloh dargohida bu mojaroning azaliyligi bitilganligini, uning aksi esa ushbu doston ekanligini bayon etadi. Shundan so'ng Ollohning sifatleri va xususiyatlari, boqiy dunyo va foni dunyo uyining yaratuvchisi ekanligi, osmondagi cheksiz koinotlar yaratuvchisi, yerga ekilgan urug'dan hosil undirish uchun baraka yomg'irini yog'diruvchi Zot deya ta'riflaydi.

Nizomiy va Fuzuliy hamd qismida uyadosh so'zlardan foydalanishganligini ko'rishimiz mumkin. Bu parda va niqob so'zlaridir. Nizomiy o'z asarida parda so'zini ishlatib, yetti kelin-u (Yer ma'nosida) to'qqiz osmoni Olloh oldida pardaga o'ranganligini aytib o'tsa, Fuzuliy insonlar Ollohni ko'rishga, unga boqishga kuchi yetmaganligi uchun Olloh O'zini pardaga o'radi, deya ta'riflaydi:

Nizomiy:

Ey yetti kelin-u to'qqiz osmon,
*Dargohinga bori parda tutg'on...*⁴⁸

Fuzuliy:

Ey pardai mosivo niqobing,
*Sandan o'zga saning niqobing!...*⁴⁹

Bundan tashqari oxirat kuniga bo'lgan ishonchni ta'riflab, butun koinot Ollohning amriga mushtoqligi, Munkar-Nakirning shuhrati muqararligini, maqsudi dili niyozmandligini, sohib Olloh ekanligi, qolgan mavjudotlarning bari g'ulom

⁴⁷ Абдулло Ҳотифӣ. Лайли ва Мачнун. Бо тасҳеҳ ва муқаддимаи Саъдулло Асадуллоев. Душанбе, 1962-й. 3.

⁴⁸ Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. Форсийдан Олимжон Бўриев таржимаси. Техрон.: Ал-Худо, 2005. 5-б.

⁴⁹ Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 6-б.

(qul) ekanligini, sulton-u avomni mahluq (yaratilgan) ekanligini Nizomiy Ganjaviy e'tirof etadi.

Fuzuliy esa fikri guli ma'rifat bahori bo'lgan, azaliy sir va abadiylikdan ogoh Ollohni tasvirlar ekan shunday yozadi:

*Ey bori xudoyi olamoroy,
Tahsin ishinga hamin o'la ra'y!
Ahsana zihi hakimi komil!
Na shukr o'la sun'iga muqobil?...⁵⁰*

Alisher Navoiy ham hamd qismda Ollohgа murojat etar ekan, uni borliqni yaratgan yagona va oliy zot deb ataydi hamda o'z gunohlarini, xatolarini kechirishni iltijo qiladi:

*Yo rab, eshigingda ul gadomen,
Kim, boshtin ayoqqacha xatomen...
Boq dardu malomatimg'a, yo Rab.
Rahm ayla bu holatimg'a, yo Rab...⁵¹*

Fuzuliy asarining hamd qismida Ollohgа murojat bilan birgalikda soqiyga ham murojatlar mavjuddir. Bu o'rinda Fuzuliy soqiyga murojat qilar ekan, muruvvat qilib, unga ishq sharobidan bir jom berishini so'rashi bilan birgalikda, undan madad tilaydi:

*Soqiy, tut alimki, xasta holam!
G'am razguzarinda poymonam.
Sansan mani mubtaloya g'amxor,
Sandan o'zga daxi kimim vor?⁵²*

Xotifiy dostonining "Munojot" qismida Allohga murojat etar ekan, "menga to'g'ri yo'lni ko'rsatgin", – deya yolvoradi:

*Эй, марҳами реши дшафгорон,
В-ей, чорам кори хомкорон!
(Ey ko'ngli siniqlarning darmoni,*

⁵⁰Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 6-б.

⁵¹Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 10-б.

⁵²Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 15-б

Ey chigal ishlarning chorasi.)

Мағзор чунун зашли зорам,

Аз роҳи карам барор корам.⁵³

(Meni xor-uzor etma,

O‘z karamingdan ishimni o‘ngla.)

Ijodkorlar hamd qismning so‘ngida Oллоhdan o‘tinchi so‘raydilar. Nizomiy “...*Gar ne yozasen, o‘chirganing xo‘p, Og‘zimni yumay, gapirmayin ko‘p...*”; Fuzuliy “*Haqqoqi, xush intizor verding, Oroyishimni tamom verding...*”, Navoiy “...*Radding‘a qabulni muti‘ et, Jurmumg‘a rasulni shafi‘ et.*” desa, Xotifiy “*Чизе, ки дар он риза надорӣ, Бар Ҳотифияш раво надорӣ... (Har narsalardankim rozi emassan, Xotifiyga ravo ko‘rma)*” – tarzidagi munojot bilan bobni yakunlashadi.

Kompozitsion tuzilishiga ko‘ra hamd qism tugagandan so‘ng Nizomiy, Alisher Navoiy, Xotifiy asarlarida na‘t (hazrati Muhammad s.a.v. ta‘rifi), Fuzuliy asarida esa soqiyga munojotning tarkibidagi na‘t keltiriladi.

Nizomiy Ganjaviy “Payg‘ambari Akram (madhi) na‘ti” deb boshlanuvchi qismda Hazrati Muhammad (s.a.v) haqida ta‘riflar berish bilan bir qatorda, besh vaqt namoz haqida, choriyorlar (to‘rt xalifa: Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali r.a.) haqida so‘z yuritiladi. Bundan tashqari na‘tni shoir ikki qismga ajratadi. Dastlabki qismda na‘t akslansa, ikkinchi qismda me‘roj tuni ta‘riflanadi. Na‘tning so‘ngida Nizomiyning hamd qismidagidek Oллоhga murojatini ko‘rishimiz mumkin:

Ey haqqi Xudo, shafote qil,

Dildan bu duo, anoate qil.

Ey barcha ishim tamomi sendan,

*Ham nuri dili Nizomiy sendan...*⁵⁴

Alisher Navoiy asarining na‘t qismida Nizomiy an‘anasini takrorlaganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda ham na‘t ikki qismga bo‘linadi. Navoiy Nizomiy

⁵³ Абдулло Ҳотифӣ. Лайлӣ ва Мачнун. Бо тасҳеҳ ва муқаддимаи Саъдулло Асадуллоев. Душанбе, 1962-й. 5.

⁵⁴ Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. Форсийдан Олимжон Бӯриев таржимаси. Техрон.: Ал-Худо, 2005.

17-6.

an'anasini davom ettirgan bo'lsa-da, mazmunan o'zgacha bo'lgan tasvir usullaridan foydalanadi:

*...Ey «kuntu nabiyyan» aylab og'oz,
Cho'p xilqating ichra aytibon roz.
Odam shajaringg'a meva monand,
Farzandingga olam ahli farzand...*⁵⁵

Bu misrada keltirilishicha, Muhammad (s.a.v) Odam Atoning ham farzandi bo'lishi bilan birgalikda, uning otasi hamdir. Ya'ni, Navoiy, diniy kitoblardagi hikoyatlar bilan o'z asarining qiymatini oshiradi. Keltirilishicha, Olloh azza va jalla Odam alayhissalomni yaratishdan oldin Muhammad (s.a.v)ning ruhini yaratadi. Shunga ishora qilar ekan, shoir, Odam Atoga Muhammad (s.a.v) ham farzand, ham Odam (Ato)ga ota deya ta'riflaydi.

Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonidagi na't qism soqiyga murojot tarkibida keltirilgan bo'lib, bu qism qisqaligi bilan ham ahamiyatlidir. Shunday bo'lsa-da, shoir mahoratini alohida ta'kidlash joizdir:

*...Mahmudi zamon, malozi islom,
Mahdumi zamon, malozi ayyom.
Abr istihsonu barqi qiyna,
Shohanshahi Makkayu Madina...*⁵⁶

Shoir bu misrada Muhammad (s.a.v) madhini keltirar ekan, uni "Mahdumi zamon" deya ulug'lash bilan birgalikda, keyingi misralarda butun arab-u ajam panohi ekanligini takidlab o'tadi:

*Arbobi hunar umidgohi,
Tuku arabu ajam panohi...*⁵⁷

Abdulloh Xotifiy "Layli va Majnun" dostoning 89-baytidan 206-baytigacha bo'lgan qismini ikki qismga bo'lib, uning birinchi qismida Muhammad (s.a.v) xislatlari, qilgan amallarining dunyo va oxirat hayotdagi o'rni, mo'minlar pushti-panohi ekanliklarini ta'riflar ekan, quyidagi o'ziga xoslikni yaratadi:

⁵⁵Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 13-б.

⁵⁶Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 13-б

⁵⁷Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 13-б

Боғи Ирам аз насими кӯят,
Хушбӯ чу дунафшазори муят.
(*Ko 'chang nasimidan Bog 'i Eram,
Ifor taratur sochingdek har dam.*)
Аз бӯй хуши насими он кӯй,
Рухул қуде аст хосияти ҷӯй.⁵⁸
(*Xushbo 'u esar u ko 'yi shamoli,
Anhor suviyu pok ruh misoli...*)

Ikkinchi qismda esa me'roj tuni ta'rifi keltiriladi. Bu tun shundayki, "*kun undan nur oladi, zulmat jahondan yiroqlashgan; bu kun ming navro 'z tongidayki, sham va chiroqsiz olamni yoritadi... Bu tunda Nabiyy (s.a.v)ning yuzi yorishganda, u kecha ikki oydan bahramand bo 'ldi. Zamona u so 'nmas nur sabab, tun zulmatidan holi bo 'ladi...*" Shoir me'roj tuni ta'rifini davom ettirar ekan, Olloh azza va jalla Rasulloloh (s.a.v)ni o'z yoniga chaqirganligini, Jabroil (a.s)ga buyurib, Buroqni keltirtirishini, osmon gumbazida Rasul (s.a.v) peshvoziga birma-bir sayyorolar kelganligini ta'riflaydi. Alloh qoshiga tashrif buyurgan Muhammad alayhissalomga do'sti (Alloh) "nima tilasang tila!" deganida:

Он хозон ҳар бу кавн бархост
Аз дӯст наҷоти умматон хост.
(*Haq uning murodini qabul etdi,
Dardi shu edi, davo qildi...*)
Ҳақ низ муроди ӯ раво кард,
Он дард ки бошт ӯ даво кард...
(*Ikki olamning egasi o 'rnidan turib,
do 'st(Alloh)dan ummatlarga najot tiladi.*)

Nizomiy o'z asarining davomi sifatida kitob yozilishining sababini ko'rsatar ekan, birinchidan, o'zining shu asarni yozishga ko'nglida mayl uyg'onganligini

⁵⁸ Абдулло Ҳотифӣ. Лайлӣ ва Маҷнун. Бо тасҳеҳ ва муқаддимаи Саъдулло Асадуллоев. Душанбе, 1962-й. 7.

aytsa, ikkinchidan, shohning amriga va iltimosiga ko‘ra qo‘liga qalam olganligini aytib o‘tadi:

Kunlarning birida podshoh (Shirvonshohlardan Axsatan I⁵⁹) uni yoniga chaqirib, quyidagicha iltimos qiladi:

...*So ‘z avjida alam tortib,
Dur og ‘zida qalam tortib.
Minqori qalamda la ‘l teshmak,
Kaklik tilida nukta eshmak...*⁶⁰
... *“Xusrav-Shirin” chu yod qilding,
Qancha dili xalqni shod qilding.
“Layli-Majnun” degil etib lutf,
To gavhari qimmating bo ‘lur juft...*⁶¹

Fuzuliy asarlarida ham xuddi shunday, asarning yozilishi to‘g‘risida, izohlar mavjuddir:

... *Bir kunki, mayi suhayl ta ‘sir,
Bermishdi mizoji poka tag ‘yir...
...Jam’ edi yonimda ittifoqi:...
“Lutf ayla, - dedilar, - ey suxansaj!
Fosh ayla jahona bir nihon ganj!
Layli-Majnun adamda cho ‘xdur,
Atrokda ul fasona yo ‘xdur...”*⁶²

Ushbu keltirilgan misolda alohida o‘ziga xoslik mavjud bo‘lib, u *“Atrokda ul fasona yo ‘xdur...”* misrasida namoyon bo‘ladi. Shoir ushbu misrada Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy, Xotifiy asarlaridan xabardor emasdek tuyiladi. Bunday xulosaga kelish noo‘rindir. Chunki Fuzuliy asarining *“Soqiynoma”* qismida shunday misralarni keltiradi:

Bo ‘lmishdi safoyi dil Nizomiy,

⁵⁹ S.Matchon, Sh.Sariyeva. Adabiyot. – T.: 2010, 148-b

⁶⁰ Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. Форсийдан Олимжон Бўриев таржимаси. Техрон.: Ал-Худо, 2005. 24-б.

⁶¹ Шу асар, 26-б.

⁶² Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 15-16-б

*Shirvonshaha dushub kiromi.
O'lmishdi Navoiyi suhandon
Manzuri shahanshahi Xuroson.
So 'z gavharina verib, guhar solonlar,
Chun qolmadi, qolmadi fasohat,
Arbobi fasohat ichra rohat...⁶³*

Bundan ko'rinadiki, qaysidir ma'noda Fuzuliy Navoiy asaridan xabardor.

Dostonlarda barcha mualliflar muqaddima bilan asosiy qismni bog'lab turuvchi maxsus bob yaratishganini ko'rishimiz mumkin. Bunday bog'lovchi bob Nizomiy asarida "*Xilvatda so'zga pardoz bermoq*" deb nomlanib, Nizomiy bu bobda gapni cho'zmaslikka, asarni boshlashiga ishora berib, shunda yozadi:

*Ish ne kechar endi aytgil oxir?
Ey sen bu aroda o'z yuking top,
Yoyinki zamonda eshigin yop...⁶⁴*

Fuzuliy asarida esa soqiyga murojatdan so'ng, "*xayli arabda bir juvonmard...*" deya asosiy qismga o'tadi:

*Dehqoni haqidagi hikoyat,
Sarrofi javohiri rivoyat
Ma'ni chamanida gul dikanda,
So'z rishtasida guhar chekanda,
Qilmish bu ravishda nuktadolik,
Gulxezligu guharfishonlik-...⁶⁵*

Alisher Navoiy bu ikki ijodkordan tubdan farq qiluvchi, tun ta'rifi haqida so'z yuritadi. Bu ta'rif muayyan ma'noda muqaddima bilan asosiy qismni bog'lovchi ko'prik vazifasini o'taydi. Bobda shoirning qorong'i tunda xayol otiga minib, sayrga chiqish tasviri berilgan. Ishq vodiysiga yetganda ot oqsoqlanib, yo'lda davom etolmay qoladi. Yomg'ir, bo'ron aralash momaqaldiroq guldurab, chaqin

⁶³ Мухаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 10-б

⁶⁴ Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. Форсийдан Олимжон Бўриев таржимаси. Техрон.: Ал-Худо, 2005. 54 -б.

⁶⁵ Мухаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 18-б

chaqadi. Chaqin yorug‘ida shoir saksovulday taxlanib yotgan inson suyaklari, vahshiy hayvonlarni ko‘radi.

Tasavvufshunos olim, professor Najmiddin Komilovning “Tasavvuf” kitobida yozilishicha, bu tasvirlarning hammasida muayyan ramz bor. Bu tun hajr tuni, bu vodiy esa ishq vodiysi, vahshiy hayvonlar oshiqqa xuruj etgan balo-ofatlar, suyaklar ishq qurbonlaridan nishona:

*O‘tgan kechakim sipehri purfan,
Nur ustiga bo‘ldi zulmat afgan.
Dahr uzra esib nasimi shabgir,
Ko‘k javfi aro sochar edi qir...*⁶⁶

Abdullah Xotifiy asarida na‘t qismidan so‘ng, Ali (r.a) ta‘rifi, asar yozilishining sabablari haqida fikr yuritiladi. Shundan so‘ng, Mir Alisher Navoiy ta‘rifiga alohida bob ajratiladi. Bunda Alisher Navoiyni osmon quyoshi deb atab, haqiqiy quyoshni uning dargohida tuproq bilan tenglashtiradi va uni shunday ataydi:

Маҳмудам ақли хушмандон,
Дебочаи фасли сарбаландом...⁶⁷
(*Oqillar aqlining hamd aytivchisi,
Iftixor faslining debochasi...*)
Дар кисвати шоҳ, лек дарвеш,
В-аз тоҷварони даҳр дар реш...⁶⁸
(*Shoh kiyimida, lekin darvesh,
Va dunyo shohlaarining afzalrog‘i...*)

Bu ta‘riflar tugagandan so‘ng “*Xoma (qalam) ta‘rifida*” deb nomlanuvchi bob boshlanadi. Bu bob asosiy qism va kirishni bog‘lovchi “ko‘prik” vazifasini o‘taydi. Yuqorida ta‘riflanganidek, bu bob ham Xotifiyning boshqa ustozlari an‘anasini davom ettirganligidan darak beradi. Bu bobda qalamga murojat etar

⁶⁶ Аlisher Navoiy. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 47-б.

⁶⁷ Абдулло Ҳотифӣ. Лайлӣ ва Мажнун. Бо тасҳеҳ ва муқаддимаи Саъдулло Асадуллоев. Душанбе, 1962-й. 17.

⁶⁸ Shu manbaa.

ekan, ijodkor, qalamini Musoning hassasiga, Maryam bo‘yi niholiga, Yunus bag‘riga qiyoslaydi. Bu qalamdan keladigan yomonliklarni bartaraf etish uchun Charh unga yulduzlardan isiriq tutatadi. Bu qalam shoirga ko‘plab yaxshiliklar tilaganligini quyidagi misralar ko‘rishimiz mumkin:

Ганчи гуҳараш, ки беҳисоб аст.

Дар вай ҳома лӯлӯй хушоб аст.

(Boyligimda gavharim behisob,

Uning barchasi sara inju-marjonlardir.)

Осон на ба дoston омад ин ганҷ,

Бурдаи пайи ҳар гуҳар бaсe ранҷ...⁶⁹

(Gu boyliglar oson qo‘limga tushmadi,

Har bir gavhar uchun ko‘plab ranj chekdim...)

Shundan so‘ng asarlar asosiy qismga ko‘chadi va voqealar rivoji boshlanadi.

Nizomiy Ganjaviy asardagi asosiy qismga o‘tar ekan, undagi har bir voqealar tizimiga alohida nom beradi. Misol uchun, dostonning boshlanishini “*Doston ibtidosi*” deb nomlaydi, oshiq-ma’shuqlar o‘rtasidagi ishq mojarosining boshlanishini esa “*Layli va Majnunning bir-biriga oshiq bo‘lgani*” deb nomlaydi va hokazo.

Fuzuliy ham xuddi shu yo‘lni tutadi. Alisher Navoiy esa har bir asarning mazmunini alohida boblar shaklida taqsimlaydi. Misol uchun hamd (1, 2-boblar), nat’ (3-bob) bilan boshlangan muqaddima va shu asosda me’roj tuni ta’rifi (me’rojnoma) (4-bob), so‘z ta’rifi, Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhi (5-bob), mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhi (6-bob), Husayn Boyqaro madhi (7-bob), shahzoda Badiuzzamon madhi (8-bob) va tun ta’rifi (9-bob) bilan yakunlanadi. Muqadima 9 bobni, asosiy qism 26 bobni (10-bobdan 36-bobgacha) va xulosa esa 3 bobni (36-dan 38-boblar) tashkil etadi. Xotifiy asarida ham bu an’analarning davomini ko‘rishimiz mumkin. Xotifiy har bir bobni nomlar bilan ataydi. Misol uchun, “*Munojot*”, “*Na’t*”, “*Dar sifat me’roji hazrati Nabiiy*

⁶⁹ Абдулло Ҳотифӣ. Лайлӣ ва Мачнун. Бо тасҳеҳ ва муқаддимаи Саъдулло Асадуллоев. Душанбе, 1962-й. 19.

alayhissalom vasallom”, “*Dar sifati Ali alayhissalom*”, “*Dar ta’rifi xoma*”, “*Og’ozi qissa*” va boshqalar.

Shoirilar asarni yaratishda, oldin aytganimizdek, ko‘proq (Navoiy asarining 240 misrasi *hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf* (ruknlari va taqte’si: maf’ulun foilun fauvlun — — — / — V — / V — —) vaznida yaratilgan), hazaj bahrining *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* (ruknlari: maf’ulun mafoilun fauvlun) vaznidan foydalanishadi va masnaviy yo‘lda yaratishadi. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy, Abdulloh Xotifiy shu an’anaga amal qilishgan. Fuzuliy esa bu bilan cheklanib qolmasdan, dostonida g‘azal va boshqa janrdagi kichik she’rlarga ham murojaat etadi. G‘azalarda Layli va Majnun faryodlari, Majnuning Layliga o‘z muhabbatini izhor etishi, yoki Majnuning Ka’batulloh qarshisida Ollohga qilgan munojoti, bir so‘z bilan aytganda, asar qahramonlarining xatti-harakatlari va ko‘ngil kechinmalari tezlashgan, kulminatsiya darajasiga etgan holatlarini ifodalash uchun shoir shu usuldan foydalanadi. Bu bilan Fuzuliy, asar qahramonlarining ichki kechinmalari, dard-istiroblarini yanada mubolag‘ali tasvirlashga erishadi.

Misol tariqasida har uchala: Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy asaridagi (Bunday xususiyat Abdulloh Xotifiy ijodida uchramaydi) ijodkorlar tasvirlagan Majnuning Ka’ba ziyoratiga borib, Ollohga yolvorish o‘rniga e’tibor beraylik:

Nizomiy Ganjaviy:

Ishq birla men tirik bo ‘lurman,
Ishq o ‘lsa agar men o ‘lurman!...
Ishqdan bu g ‘oyate eturman,
Qolgay u, agarchi men keturman!
Ishq chashmasidan menga ber nur!
*Bu surmadan etma meni mahjur!...*⁷⁰

Alisher Navoiy:

⁷⁰Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. Форсийдан Олимжон Бўриев таржимаси. Техрон.: Ал-Худо, 2005. 78 -б.

*Bu ishq o'tikim bayon qilurmen,
Muhlik g'amini ayon qilurmen.
Demogin meni tarabg'a xos et,
Yoxud g'ami ishqdin xalos et!
Dermenki manga bu o'tni hardam,
Afsun qilu, qilma zarrai kam!⁷¹*

Fuzuliy:

*Yorab, baloyi ishq ila qil oshino mani!
Bir dam baloyi ishqdan etma judo mani!
Oz aylama inoyatingni ahli darddan
Ya'niki, cho'x balolara qil muftalo mani!...
Getdikcha husning ayla ziyoda nigoriming
Galdikcha dardina batlar et muftalo mani!⁷²*

Shu misralar bilan har uchala shoir asarlarining o'ziga xosligini belgilab berishdi. Jumladan, Majnunning Ka'badagi iltijosi Nizomiy asarida dostonning mazmuniy kulminatsiyasini tashkil etsa, Navoiy dostonida u pafos darajasiga ko'ra eng yuqori cho'qqisini ifodalaydi. Fuzuliy asarida esa turkiy tildagi eng go'zal tasvir va sevgining betakror namunalaridan biriga aylanadi.

Ijodkorlar doston yozilish tarixiga to'xtalishgan paytda, biz ular orasidagi o'ziga xoslikni yanada yaqqol ko'ramiz. Yuqorida aytib o'tganimizdek, Nizomiy kitob yozilishi sababini ko'rsatgan bo'lsada, unda asarni qachon yozilganligiga ishora yo'qdir, Fuzuliy asari esa bundan mustasno. Shoir asar yozilish tarixini quyidagi misrada e'tirof etadi:

*Izhora galib rumuzu vahdad,
Vahdada tamom o'lub hikoyat,
Tarixina dushdilar muvofiq:
Bir o'lmoq ila ikki oshiq.⁷³*

⁷¹Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 150-б.

⁷²Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 57-б.

⁷³Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 181-б.

Misralar muammo janriga mansub bo'lib, uning kaliti ikki oshiq so'zlari hisoblanadi. Bu so'zni ikkilantirib, ularning abjad hisobidagi yig'indisini topsak, asar yozilgan yili ma'lum bo'ladi. Ya'ni: عاشق 471 va عاشقاي hijriy 942 bo'ladi, bunga 1 ilova qilinsa, hijriy 943 chiqadi. Bu milodiy 1537 yilda to'g'ri keladi.

Xotifiy asarida o'zi tomonidan yozilish sanasi mavjud emas, lekin xattotlar tomonidan ayrim nusxalarida doston yozilish sanasi va ko'chirilish sanasi mavjud. Biz foydalangan adabiy-tanqidiy matnda ijodkor tomonidan yozilgan sanasi mavjud emas.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har to'rtala doston kompozitsion tuzilishi va mazmun nuqtai nazaridan qanchalik o'ziga xos bo'lmasin, bari-bir irfoniy jihatdan bir mavzu – muhabbat mavzusini ulug'lagan va har to'rtala shoir ham bu maqsadlarini bekam-u ko'st ado etgan, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

II.2. Asarda obrazlar tizimi va o'ziga xos g'oyaviy-badiiy talqin xususiyatlari.

Ishq – butunligicha inson kamoloti va hayotini tasvir etuvchi, uning orzu-istaklari bilan hamohang ravishda yo'ldosh bo'luvchi tuyg'u. Uning ta'rifi shunchalik ko'pki, har bir ta'rifi, umuman olganda, bashariyatni tarannum etish vazifasini bajaribgina qolmay, uning keying rivojini ham belgilab berishga qodir.

Har bir shoir, avvalo, ishqni kuylovchi ijodkordir. Hech qanday shoir yo'qki, ishqni kuylamagan bo'lsa. Shunday ijodni biz mumtoz adabiyotda ham ko'rishimiz mumkin. Yusuf Xos Hojibdan tortib Alisher Navoiygacha, Boburdan to XX asr shoirlarigacha barchasining ijodida ishq mavzusidagi asarlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Ishq, muhabbat, avvalo, ona yurtga, onaga, sevikli yorga atalgan bo'lishi bilan birgalikda, Ollohga ham atalgan bo'lishi mumkin. Bu ishq "ishqi ilohiy" deb ataladi. Navoiy ham "Mahbub ul-qulub" asarida ishqning turlarini sanar ekan, shularning ikkitasi ishq ilohiyligini ko'ramiz. So'zimizning isboti tariqasida Hilola Safarovaning ushbu ma'lumotini keltirishimiz mumkin: *"Qissasi Rabg'uziy" da asosiy qahramon Hazrati Ya'qub, Yusuf va Zulayholardir. Shu bilan birgalikda asarda to'qsonga yaqin tarixiy nomlar uchraydi. Bu*

*nomlarning barchasi bir mujda asosida Ollohga bog‘lanadi. Bu ham bo‘lsa ishqdir”.*⁷⁴

Majnun – Olloh yo‘lida o‘zini ham ayamaydigan komil inson. Har nedan-da Olloh ishqini ulug‘lovchi va shu ishq to‘la jomni to‘lqinlantirib ko‘taruvchi soqiy. Chunki bu xulosaga kelish uchun ham bir qancha asoslar bor. Bu haqida keyinroq to‘xtalamiz.

Nizomiy o‘z asarida Arabistonda yashovchi bir el (Omir eli)ning sultoni dunyodan bir ta’ma – farzand uchun elga, beva-bechoralarga, yetim-yesirlarga o‘z molini hadya etishini shunday bayon etadi:

*Sarv o‘rnida ko‘rsa yangi sarve.
Ne keksa daraxti sarvni ko‘rgay...
Ul kimsa tirik erur makonda,
Farzandi agar qolur jahonda...*⁷⁵

Shoir asarda bu misralarni keltirar ekan, Olloh bu elning “sarv”iga har tarafdin ildiz bergan-u, lekin “nihol” dog‘i uning tanasini otashday kuydirar edi, deydi. U shu umidda ming hamyon bilan sadaqa qilsada, bir moh otashida yonar, suman eksada, hech ham unga teskari aylanuvchi dunyo iltifot ko‘rsatmas edi.

Alisher Navoiy esa o‘z asarida bu voqeani shunday tasvirlaydi:

*...Otu tevasi hisob ila jup,
Qo‘yu qo‘zisi hisobdin ko‘p.
Aylab ani umri sur‘agoyin,
Bir yosh yo‘qidin asru g‘amgin.
Moli ko‘pu, umri sust payvand,
Farzandg‘a erdi orzumand ...*⁷⁶

Qabila boshlig‘i tez o‘tuvchi umridan kuygan, bolasi yo‘qligidan juda qayg‘urardi. Navoiy Majnunining otasi haqida fikr yuritar ekan, insoning hayot libosi eskirib, umr daraxti ham qulay deb qolganda, yonida sanavbarga o‘xshagan

⁷⁴ Хилола Сафарова. Ҳазрати Юсуф – гўзаллик тимсоли. Тошкент ислом университети, 2002. 120 б.

⁷⁵ Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. Форсидан Олимжон Бўриев таржимаси. Техрон.: Ал-Худо, 2005. 55-б.

⁷⁶ Алишер Навоий. Танланган асарлар. – Т.: XI том. Фан, Т.: 1992 й. 58-б.

yosh mevali nihol (farzand) bo'lishini istagan insonni ichki kechinmalari bilan tasvirlaydi. Agarda azamat daraxt tubidan ko'chsa, soya soluvchi nihol borligini his qilardi, ya'ni yo'qolgan sadafdan bir dur qolsa, uning qabilasi shu durdan nur olardi. Navoiy bu bilan o'z salafi Nizomiydan farqli o'laroq, Qaysning otasini komilroq va saxiy, ham bir vaqtning o'zida oddiy inson qilib tasvirlaydi. Shuningdek, Nizomiydan farqli ravishda, Navoiyning tasvirlashicha, u sabr egasi.

Fuzuliy ijodida ham bu voqea quyidagicha aks etadi:

*Ta'sir qilib fig'onu ohi,
Avn etdi inoyati ilohi,
Bir kecha ochildi bobi rahmat,
Bo'ldi asari duoi ijobat.*⁷⁷

Farzandsiz odam talafdur (yo'q bo'luvchi) deyilganidek, Omar qabilasining sardori farzandsiz edi. Beva-bechoralarga ko'p ehsonlar berdi. Uzoq kutilgan kun keldi. Olloh uzoq kutilgan farzandni ota-onaga berdi. Ko'plab in'om va ehsonlardan so'ng hayot bog'ida juda ajib bir nihol paydo bo'ldi. Shoir bu uzoq kutilgan "talab"ni izohlar ekan, istalgan niyat nuri ijobat bo'lganini, qalam bilan inson taqdirida shunday bitiklar bitilganligi va, hattoki, qiyin paytda ham inson umid qilishi kerakligini ta'kidlaydi.

Abdulloh Xotifiy asarining boshlanishi ham ijodkorlardan qolishmagan holda o'ziga xoslikka ega. Arab mulkining dongdori, donishmandlikda yetuk insonning farzandsizligi bilan boshlanadi. Boshlanishni o'qir ekanmiz, bu dongdor insonning arab qabilaridan qaysi biridan ekanligini bilmaymiz. Bu keyingi qismlardagi ma'lumotlardan bilib olamiz. Faqatgina bu qismda "Машхури қабоми араб буд, Оли насабу қавӣ ҳасаб буд..."⁷⁸ (*Arablarning mashhur qabilasidan, Oliy nasab va fozil*)" deya ta'kidlanar ekan, farzandsilikdan doimo g'amgin, shu sababli muttasil mahzun, daraxt guli meva tugish uchun gullasa-da, lekin meva bermas, har doim nasliga payvand qilmoqchi bo'lib, Ollohdan farzand tilovchi zot deya ulug'lanadi:

Будаиш ғараз ин, ки дар замона,

⁷⁷ Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 19-б

⁷⁸ Абдулло Ҳотифӣ. Лайлӣ ва Мачнун. Бо тасҳеҳ ва муқаддимаи Саъдулло Асадуллоев. Душанбе, 1962-й. 22.

Номаш нашавад гум аз миёна.
(*Bundan maqsadi shu ediki,
O'rtada zamonadan nomi o'chmasin.*)
3-он кас, ки надомат ёдгоре,
Н-оят каси марг дар шуморе.⁷⁹
(*Kimdan biror yodgor qolmasa,
O'limidan so'ng uni eslamaydilar...*)

Nizomiy Ganjaviy ota iztiroblarini ifoda etar ekan, u Ollohdan tinimsiz farzand so'rganligini yozadi va kunlarning birida:

*Dur so'rgay edi debon farzand,
La'l koni misoli bo'libon band.
Olloh tazarrusig'a ozim,
Berdi bir o'g'il chunonki lozim...*⁸⁰

Bir maqsadni ko'zlaganda shuni o'yla – deydi, Navoiy, – agar unga erisha olmayotgan bo'lsang sabr qil:

*Komingni aningdek et taxayyul,
Qim, toimasang etgasen tahammul.*⁸¹

Shundan so'ng uzoq kutilgan umid uchquni paydo bo'ladi:

*Chun tengriga qildi ko'p tazarru'
Topti nekim ayladi tavaqqu'.
Chun komi aning bor erdi farzand,
Berdi xalafe anga xudovand.*⁸²

Fuzuliy dostonini o'qir ekanmiz, bu farzandning qanday jinsda ekanligiga ishora qilib, shoir shunday misralarni keltirganiga guvoh bo'lamiz:

*Alqissa adamdan o'ldi paydo,
Bir tifli muzakkaru muzakko.*⁸³

⁷⁹ Shu manbaa.

⁸⁰ Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. Форсийдан Олимжон Бўриев таржимаси. Техрон.: Ал-Худо, 2005. 56-б.

⁸¹ Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 59-б.

⁸² Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. Форсийдан Олимжон Бўриев таржимаси. Техрон.: Ал-Худо, 2005. 59-б.

Ikkinchi misrada shoir “muzakkaru muzakko” ta’rifini keltiradi. Bu ta’rif “toza, pok erkak jinsi” ma’nosini anglatadi. Shunday qilib, o’lkada bir pok, toza erkak zotidan bo’lgan bola tug’ildiki, u Xurshid kabi har ishda qobiliyatli, layoqatli, Iso kabi komillar naslidan edi. Bola tug’ilganidan o’z holini bilib fig’on chekarkan:

*Ul damki, bu xokdoma tushdi.
Oxir kunin avval aylayub yod,
Oqitdi surishku qildi faryod.
Ya’niki: “Vujud domi g’amdir,
Ozodalaring eri adamdir;
Har kimki, asir o’lur bu doma,
Sabr etsa kerak g’ami mudoma”.*⁸⁴

Bu o’rinda shoir, go’dakning yoshlik chog’idan boshlab tiriklik azobini his qilishini bayon etar ekan, Ollohga muhabbat qo’ygan har bir tolib taniga jonining kirishi bilan juda og’ir mashaqqatlarga duchor bo’lishini sezadi va bu jon uchun tana qafas, sof muhabbatga to’sqinlik qiluvchi to’siq ekanligini uqtiradi.

Bundan tashqari dunyoga kelgan har bir xom sut ichgan banda gunoh ishga qo’l urishiga ishora qilib, “*Oxir kunin avval aylayub yod*” misrasini keltiradi. Bu bilan shoir Qur’oni karimdagi ushbu oyatga ishora qiladi: “*Bismillohir Rohmanir Rohiym. Bu kun Biz ularning og’izlarini muhrlab qo’yurmiz va bizga ularning qilib yurgan ishlari haqida ularning qo’llari so’zlar va oyoqlari guvohlik berur. (Yosin surasining oltmish beshinchi oyati)*.”⁸⁵

Shoir bu vujud to’sig’iga ruh kirgandan so’ng, albatta, oshiqning sabr qilishi va gunoh ishlardan o’zini tiyishi kerakligiga ishora qiladi. Bu “to’siq”ni hadya etgan jafochi dunyoga yuzlanadi:

*So’ylardiki: “Ey jafochi dunyo!
Bildim g’amingi saningki, cho’xdur.
G’am chekmaya bir harif yo’xxdir.*

⁸³Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Фафур Гулом, 1968. 19-6

⁸⁴Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Фафур Гулом, 1968. 19-6

⁸⁵Qur’oni karim. Alouddin Mansur tarjimas. <http://forum.ziyouz.com>. 401-b.

Galdimki, o'lam g'aming harifi!
Har qanda g'am o'lsa, qilma ehmol.
*Jam' ayla, dili hazinima sol!*⁸⁶

Endi Majnun dunyoda g'am-anduh ko'pligini biladi. G'am chekmay hech qanday narsaning ibtidosi bo'lmasligiga, g'am chekmay biror bir narsaga erishish mumkin emasligini his etadi va dunyoga qarata Olloh tolibi bo'lish niyati borligiga ishora qilib, (ya'ni uning biror bir ismiga asos bo'luvchi harfi bo'lish orzusi borligiga) qancha g'aming bo'lsa, qalbimga sol deya so'raydi.

Chaqaloq Qaysni Navoiy shunday tasvirlaydi:

Qaysi xalafi, xalifa zodi,
*Ishq ahlig'a qiblai murodi...*⁸⁷
Yotquzdilar oni mahd ichinda,
*Gul yofrog'i tushti shahd ichinda...*⁸⁸
Yotquzdilar oni mahd ichinda,
*Gul yofrog'i tushti shahd ichinda...*⁸⁹

Anorning gulidek yosh, ming chandon chiroyli va betakror, ravshan nur sochuvchi gavhar, tunu kun uyda dilni ochuvchi ovunchoq. U vorisgina emas, balki ishq ahlining murod qabilasidir. Ishqning tug'ilishi bir bashariy qatradan ekan, o'sha modda ma'no sadafining ishq gavharidir. Shu qatra tan xazinasining yashirin qimmatbaxo kumushi, jon gulshanining yashirin yorug' shabadasidir.

Muhabbat oyati uning yonog'idan tovlanib, vafo farmonlari esa, yuzidan ko'rinardi. Ishq mulkining shohi ko'kdan ergacha hukm qildiki, shodmonlik bilan osmon gumbazigacha ziynat berib bayram qilsinlar.

Nizomiy Qaysni tasvirlar ekan, uni ikki haftaligida qo'sh haftali oy kabi edi deydi va shu haftada unga Qays ismini berishganini aytadi. Bir yil o'tib ishqni ikki qo'llab olib berishini, uch-to'rt yildan so'ng shavkat bog'ida mag'rur o'sganini

⁸⁶ Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Фафур Фулом, 1968. 20-б

⁸⁷ Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 59-б.

⁸⁸ Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 60-б.

⁸⁹ Шу асар, 61-б.

aytadi. Bu bilan shoir shu yoshida hech qanday chiroy unga tenglasha olmaganligiga ishora beradi.

Navoiy esa bolaning bo'g'zidan sut o'tishi bilanoq qonga aylanar, yerga yurishni o'rganmagan chog'idan boshlab, emaklashga harakat qilar, o'tni ko'rganda uni ishq o'ti gumon qilib, unga yashirincha mayl qo'yar, deb tasvirlaydi. Bu bilan shoir Qaysni tug'ilganidayoq ishq o'ti bilan dunyoga kelganligiga ishora qiladi. Qays tilga kirganda esa har bir gapi ta'sirli bo'lib, gaplashganda uning so'zlari elning xushini yo'qotar edi. El bundan xabar topib, Qaysni ko'rmoqqa oshiqardi.

Xotifiy dostonining boshlanishida esa ota o'z farzandining dunyoga kelishini tinimsiz so'radi. Shunda kunlarning birida *“uning murod buluti qatra sezdi, har neki sadafga dur ataldi. Uning guli loladek qonga belanib dunyo yuzini ko'rdi”*:

Бо мушку гулоб дояш гулуст,
Онгоҳ ҳариру парниён чуст.
(*Doya uni mushk va gulob bilan yuvib,*
Shu payt shohi va harir qidirdi)
Печиб чу мушк дар ҳарираш,
В-аз ширам қон кашид ширам.
(*Shohi-harirga o'radi mushk kabi,*
Hamda jon sutidan oziqlandi.)
Зи ангушти ҳунар кушод комам,
Қайси ҳунарӣ ниҳод номаш...⁹⁰
(*Hunar barmog'i bilan nomini ko'tarib,*
Otini hunarli Qays deb qo'ydi...)

Qays ulg'ayar ekan, vujudida ishq alanga olar, Ollohni tanish yo'lida ilm o'rganishga ahd qilganini shoirlar o'z asarlarida aks ettirishadi. Nizomiy o'n yoshida Qaysni o'z qabilasidagi maktabga borganini aytsa, Fuzuliy Qaysni

⁹⁰ Абдулло Ҳотифӣ. Лайлӣ ва Мачнун. Бо тасҳеҳ ва муқаддимаи Саъдулло Асадуллоев. Душанбе, 1962-й. 23.

maktabga borganligiga ishora qiladi. Lekin biz necha yoshda Qays maktabga borganligini bilmaymiz:

*Chun, sur'at ila do'nub zamona,
O'n yoshina etdi ul yagona.*⁹¹

Navoiy esa u yurishni o'rganib olgandan so'ng otasi maktabga qo'ymoqchi bo'lganligini, lekin unga ta'lim beruvchi ustozlar o'z qabilasida yo'q ekanligini uchun, boshqa qabila mudarrisiga berishga qaror qilishganini yozadi. Bu qabila Layli qabilasi edi va Qays Laylini shu maktabda ko'radi. Shu fursatdan boshlab Qaysning qalbida xavvos, ya'ni xoslar ishq urug'lari alanga oladi.

Xotifiyda esa Qaysni otasi mamlakat odatiga ko'ra 10 yoshida xatna (sunnat) qilganda so'ng, uni maktabga yuborish taraddudini ko'radi. Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi: Xotifiy ham asarning bu qismida o'z ustozlari izidan boradimi, yoki o'ziga xoslik yaratadimi? Gap shundaki, Xotifiy bu qismda ustozlari izidan bormaydi. U Qays va Laylini maktabda ko'rishtirsada, lekin ularni bir urug' qilib tasvirlaydi. Maktabga boruvchi bir necha yoshlarga qizlar ham qo'shilib, maktabga borishdi. Ular ichida Qaysga bir parivash, sho'x tannoz hamroz (sirdosh) bo'ldi. Shu joyda Layli ta'rifi keltiriladi.

Oллоh vasliga intilgan Qays uning mazhar (aks ettiruvchisi) sifatida Laylini ko'radi va unga oshiq bo'lib qoladi. Kaykovus aytganidek, ishq illatining dorusi hamisha og'ir yuk chekmak, uzoq safar qilmoq va doimo o'zini ranjga tutmoqligi sababli Qays unga devonalarcha oshiq bo'lgan edi.⁹²

Shundan keyin Qays insonlardan yiroqlasha boshlaydi. Dunyo ne'matlarini unutib, muhabbat tufayli boshqa kishilardan ajralib qoladi. Qays Laylini ko'rish uchun qabilasiga boradi (Bu N.Ganjaviy, A.Navoiy va M.Fuzuliy asarida aks etgan, Xotifiyda esa uyining yoniga borishni kanda qilmadi, tarzida berilgan). Nizomiy asarida Laylining otasi tomonga Qaysning otasi sovchilikka borganligi tasvirlansa, Navoiy asarida Qaysning "majnun"lik qiyofasidan xabar topgan Laylining otasi Qaysning otasiga xat yozgani alohida tasvirlanadi. Xotifiy asarida

⁹¹ Мухаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 21-б

⁹² Кайковус. Қобуснома. Т.: Ўқитувчи, 2006. 76-б

esa qabila oqsoqollari Qaysning holidan xavotirga tushib, unga sovchilikka borishadi. Uchala holatda ham Qays rad javobini olgach, g'am dengiziga cho'kadi. Nizomiy Qaysning bu holatini tasvirlar ekan, avvalo, ishq dardi haqida quyidagicha xulosa beradi:

*Ishq ulki bo'lmagay hech kam,
To bo'lgayu topmagay barham.
Ul ishq na sarsari hayoldir
Anga abadulabad zavoldir...*⁹³

Shunda Majnun (Navoiy asarida) o'z-o'ziga savol beradi:

*Kim, "Bo'lmasa netkay erdi budum
Yo bo'lsa edi adam vujudum.
Men xastani aylamakta mavjud,
Ne erdi ekin qazog'a maqsud.
Jismimg'a qadarki ruh berdi.
Bermasa edi, ne bo'lg'ay erdi?"*⁹⁴

Qays o'z dardidan forig' bo'lish uchun hattoki, tanini itlar talashib yeyishiga ham rozi. Chunki unga yorsiz yashashdan ortiq judolik va azob yo'q. Xotifiydagi Qays esa sinovlarga muhtalo. Negaki, yo'q javobini sevikli dildori oilasining og'zidan eshitgan mashuqning ahvoli tayin. Bunday azob va uqubatlarga uchragan Qays, jamiyatdan yuz o'girib, biyobonga yuz buradi. Bu hodisalardan xabar topgan ota uning dardiga davo topish ilinjida Ka'baga olib borishadi.

Ular o'sha yerda "hayot daraxti"ni qurishdan qutqarib qolamiz, o'sha yerda zora bu dardan forig' bo'lsa, deb o'ylashadi. Lekin bu urinishlari zoye ketadi. Chunki Qays ishqni faqat Olloh jamoliga umidvorlik bo'lganligi sababli, Ollohdan ishqda kamolotni so'rashi aniq edi. Mana shu holat uch daho ijodkor ijodida shunday aks etadi.

Nizomiyda:

...Yorabki, Xudoligu Xudoying,

⁹³ Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. Форсийдан Олимжон Бўриев таржимаси. Техрон.: Ал-Худо, 2005. 76-б.

⁹⁴ Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 123-б.

*Ul damki kamoli podshoying,
Ishqdan bu g'oyate eturman,
Qolgay u, agarchi men keturman!
Ishq chashmasidan menga ber nur!
Bu surmadan etma meni mahjur!...*⁹⁵

Alisher Navoiyda:

*Mamlu aning o'ti birla jonim,
Jonim neki, mag'zi ustuxonim.
Bu ishq o'tikim bayon qilurmen,
Muhlik g'amini ayon qilurmen.
Demogin meni tarabg'a xos et,
Yoxud g'ami ishqdin xalos et!*⁹⁶

Fuzuliyda esa bu voqea quyidagicha aks etadi:

*Yorab, baloyi ishq ila qil oshino mani!
Bir dam baloyi ishqdan etma judo mani!
Oz aylama inoyatingni ahli darddan
Yoinki, cho'x balolara qil muftalo mani!...
Getdikcha husning ayla ziyoda nigoriming
Galdikcha dardina batari et muftalo mani!*⁹⁷

Abdulloh Xotifiy asarida esa bunday tasvir usuli mavjud emas. Ijodkor, bizningcha, tasavvuf ta'limotiga binoan haqiqiy yor (Alloh) jamoliga pir (ustoz) yordamida erishtirishni rejalashtiradi. Shu sababli qabilaning tavsiyasiga binoan ota qabiladoshlaridan g'orda bir avliyo borligini, u zamona murshidi ekanligini, undan borib najot so'ralsa, balki ishqdan forig' etilish yo'lini ko'rsatishini bilib oladi. Majnunni tog'lar orasidan topib kelgan ota o'g'lini shu ilm peshvosi oldiga olib borganda, Majnun:

Гуфт: Эй гули гулшани ҳақиқат, (Dedi: Ey haqiqat gulashanining guli,

⁹⁵ Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. Форсийдан Олимжон Бўриев таржимаси. Техрон.: Ал-Худо, 2005. 78 -б.

⁹⁶ Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 150-б.

⁹⁷ Мухаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Фафур Фулом, 1968. 57-б.

В-ей гавҳари махзани тариқат.	Ey tariqat hazinasining gavhari.)
Эй хоки дари ту сачдагоҳам,	(Ey eshiging tuprog'i sajdagohi,
В-ей давлатат патоҳам соям.	Ey davlating soyasi panohi.)
Гўянд маро зи ишқ кун бас,	(Meni ishqdan qayt deydilar, Ishqdan qanday
Аз ишқ чи гуни бас кунад кас?!	qilib kishi voz kechishi mumkin?!)
Ишқ аст тамоми ҳосили ман,	(Mening tamomi hosilim ishqdir,
Ваз ишқ сиришта шуд гули манд,	Va mening loyim ishqdan qorilgan edi.)
Бо ишқ яке шудаст чонам,	(Jonim ishq bilan birlashgan,
Бо ишқ чӣ гуна зинда монам?	Ishqsiz qanday qilib tirik qolay?)
Эй муршиди дин букун дуое,	(Ey din yo'lboshchisi, duo qil, Sening
К-аз ҳиммати ту расам баҷое.	himmating sababli shunday joyga yetay.)
Бо сачдагаўе, ки оварӣ руй,	(Sajdagohga yuzlanganingda
Андар ҳақи ман ҳамин дуо гўй.	Men haqimda ushbu duoni ayt:)
То чон бувад дар ин куҳан бор,	(Bu eski uyda toki jonim jonim bor ekan
Бошад ғаму дарди Лайлиам ёр.	Laylining g'am-u dardi menga yor bo'lsin.)
З-оломим умр чун шавам пок,	(Umr kirlarimdan pok bo'lganimda,
Бодом ғами дӯсти мунис хок.	Munis do'stimning g'ami tuproq bo'lsin.)

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, Qays obrazini ham "komil inson" xususiyatlarini aks ettirgan oshiq desak yanglishmaymiz. Qays muhabbat yo'lida o'zligidan, hattoki o'z ota-onasidan ham yiroqlashdi. Bunday insonni komillik sari intuluvchi inson desak bo'ladimi?

Komilik sari intilish g'oyalari Majnuning quyidagi o'ziga xos jihatlarida namoyon bo'ladi:

Birinchisi, Qays (Majnun) va Navfal munosabatlarida (Qaysidir ma'noda bu xususiyat Xotifiy asarida ko'zga tashlanmaydi.)

Ikkinchisi, Majnun va ota-ona munosabatlarida. Har to'rtala ijodkor asarlarini o'qish davomida shunday xulosaga kelish mumkin. Majnun otasi bilan bo'lgan suhbat davomida ota-onaning qanchalik ulug' zot ekanligini ta'kidlab o'tiladi. Shuni inobatga olgan holda, Majnun – komil inson.

Uchinchidan, bu keltirilgan misollardan tashqari Majnunning kamoloti yovvoyi hayvonlar, demakki, tabiat bilan bo'lgan munosabatda ham aks etadi. Bu barcha ijodkorlar asarlarida aks etadi.

Demak, "Layli va Majnun" dostonlarida Qays (Majnun) obrazi orqali faqatgina ishq yo'lida "Majnun" darajasiga etgan shaxsgina emas, axloq va odobda kamolotga erishgan insonni ham tasvirlashga harakat qilishgan va bu vazifani a'lo darajada bajarishgan.

Boshqa dostonlarda bo'lganidek, "Layli va Majnun" dostonida ham oshiq va ma'shuqa bosh obrazni tashkil etadi. Shu jumladan, Layli obrazini tasvirlashda to'rtala ijodkorning o'ziga xosligini ko'rib o'tamiz.

Nizomiy Ganjaviy "Layli va Majnun" dostonida Layli obraziga ta'rif berar ekan, Majnun va Layli mojarosi biroz boshqacha boshlanganligi, ya'ni yosh Laylini Qaysning qabilasiga ilm o'rgangani olib keladilar. Qaysni ota-ona o'n yoshda etganida ilm olish uchun maktabga jo'natishadi. Maktabda, shoir yozganidek, barcha hammaktablari ichida alohida ajralib turuvchi, o'zga qabiladan kelgan sinfdosh bor edi:

*Bir qiz bor edi go'zal, marg'ub,
Oqil kabi ezgu nomga mansub...*⁹⁸

U: orasta edi, go'yoki bir oy misoli, sarv daraxtidek qomati tik, sho'xligi bilan boqishi neki bir, balki ming dilni teshuvchi, ohu ko'zlik arab mohi edi. Agarda u yuz ochsa, turkiydan tortib ajamiylargacha barchaning ko'nglini oladi. Agar sochi tun bo'lsa, yuzi o'sha tunni yorituvchi chiroq, yoki sochi qop-qora qarg'a-yu yuzi uning oldida mash'ala yorishganday bo'lardi:

*Mohi arabiy yuz ochsa gar ul,
Turkiy ajamiy olurda ko'ngul.
Zulfi chu tunu yuzi charog'e,
Yo mash'ala ul chu rangi zog'e...*⁹⁹

⁹⁸Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. Форсийдан Олимжон Бўриев таржимаси. Техрон.: Ал-Худо, 2005. 58 -б.

⁹⁹Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. Форсийдан Олимжон Бўриев таржимаси. Техрон.: Ал-Худо, 2005. 58-б.

Navoiy asarida Qays maktabga borgan zahoti Laylini uchratmaydi (chunki Layli bu paytda betob edi), Fuzuliyda u maktabga borgan zahotiyoyoq Laylini ko‘radi, Xotifiyda esa maktabga borayotgan Qaysga qizlardan Layli do‘st bo‘ladi va hamrohlik qiladi. Shundan so‘ng Layli ta‘rifi keltiriladi.

Alisher Navoiy Qaysning ustozini ta‘riflab bo‘lgandan so‘ng, dastlabki o‘rinda ustozning “xazinasi”da (ya’ni maktabida) turli xildagi “durlar” borlinini tasvirlar ekan, ustoz *ularning ichidagi alohida bir dur bilan faxirlanar edi* deydi¹⁰⁰. Bu bilan shoir Layliga ishora qilganligini, uning husn-tarovatini tasvirlashni boshlagandan so‘ng bilib olamiz.

*...Bo‘stonida yuz gul erdi xudro‘y,
Bir guldin aning dimog‘i xushbo‘y
Bir mash‘al ila ko‘zi munavvar
Kim, uchquni erdi mehri xovar...*¹⁰¹

Bu bilan Navoiy Laylini birgina ustozning bog‘idagi gul deb atabgina qolmay, balki butun qabiladagi Sharq quyoshi deya tasvirlaydi. Bundan tashqari sarv kabi xushqomat, qomati bilan shamshodga rashk soluvchi ekanligini ta‘kidlaydi:

*Naxliyu, ne naxl, sarvi ozod,
Sarviyu, ne sarv, rashki shamshod.
Oyiyu, ne oy, badri toli‘.
Badriyu, ne badr, mehri lomi‘...*¹⁰²

Bu baytda shoir ruju (musalsal) san‘atidan mohirlik bilan foydalanadi (Bu san‘atning mohiyati shundan iboratki, shoir o‘z fikr va kechinmalarini bayon etish maqsadida turli obraz yoki iboralardan foydalanar ekan, tasvir jarayonida o‘zining oldingi fikrlari (iboralar, obrazlar)dan voz kechib, ularni rad etadi va o‘rniga yangi obraz va ibralarni keltiradi).¹⁰³ Shoir o‘zining mahoratini ko‘rsatib, obrazni ham mazmunan, ham shaklan g‘oyat go‘zal tasvirlaydi.

¹⁰⁰ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – T.: G‘afur G‘ulom, 2006. 318-b.

¹⁰¹ Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 65-б.

¹⁰² Шу асар, 65-б.

¹⁰³ Ёқубжон Исҳоқов. Сўз санати сўзлари. Т.: Ўзбекистон, 2014.

Fuzuliy Laylini tasvirlar ekan, shunday sanamki, aqli yetuk, zulfi esa jon boʻynida baloli zanjirligini, qoshlari ham oʻq misoli beomondir, u (qosh) ikkita-yu, lekin latofat ichida yakka (toq) ekanligini aytib oʻtadi:

*Abrusi hami baloyi ushshoq,
Ham juft latofat ichra, ham toq.*¹⁰⁴

Xotifiy esa oʻsha shoʻx, koʻp latofatli, nodira qiz jon xilvatgohining harifi(doʻsti)dir:

*Хуршед надида сояшро,
Маҳ низ наёфта пояшро.
(Oftob soyasini koʻrmagan,
Oy ham martabasiga yetmagan.)
Дели гули оразаш зи покӣ,
Дар зери арақ зи шаринокӣ.
(Doim yuzining guli
hayo terlaridan pok edi.)
Мебурд маҳаш зи рӯй хур об,
В-аз панчаи офтоб дар тоб.
(Oy yuzi hur yuzini uyaltirardi
Va oftob nuridan toblanardi.)
Лайлӣ номе суманузоре,
Ғунчадаҳане суҳангузоре.
(U suman yuzining ismi Layli edi,
Ogʻzi gʻuncha edi, lekin gapirardi...)*

Toʻrtala shoir Layli madhida ham shugina taʼriflar bilan cheklanishib qolishmaydi. Alisher Navoiy umumlashgan taʼrifdan endi yorning jamoli-yu, qaddi bastining taʼrifiga oʻtadi:

*... Shahd ikki labi, vale ratabnoʻsh,
Badr ikki yuzi, vale qasabpoʻsh.
Zulfi tunida uzori xurshed,*

¹⁰⁴Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 23-б.

*Xurshed uza zulfi shomi ummed.
Ne shomki chun ochib savodin,
Qo'ymay ko'ngul ichra subh yodin.
Boshkim qo'shib ikki egma qoshi,
Husn ichra ikisining taloshi...*¹⁰⁵

Ikki labi asal, lekin xurmo mazalik; ikki yuzi to'lgan oy-u, lekin niqobda. Qora zulflari tunida yuzlari quyoshdek, gajaklar esa shu quyoshning ustidagi umid shomi edi. Yo'q, shom emas, balki ko'ngildan tongning yodini chiqaruvchi qorong'ulikning yoyilishidir. Xurmo mazalik degan so'z bilan Navoiy Laylining labi g'oyat shirinligi bilan birga arab go'zali ekanligiga ishora qilmoqda. Sababi, u asosan xurmo yeydi va labiga ham, tabiiyki xurmoning mazasi yuqqan. Layli yuzining niqobli ekanligi ham uning arab qiziligi bilan bog'liq tasvir. Chunki arab xalqlari sahroning changu to'zonlaridan saqlanish uchun yuzlarining ko'zdan pastki qismini niqob bilan o'rab yurganlar.

Bundan tashqari, shoir yorning ketma-ketlikda qoshini, xolini, ko'zini va kipriklarini tasvirlaydi:

*Mujgon safining qaro balosi,
Ko'zlar uza soyaning qarosi.
Yo'q sonki to'rt saf chekib zang,
Majmui libosi surmai rang.
Ochqukcha yumub ko'z ul sipah tez,
Bir-birga tegib qilurg'a xunrez.
Dema bu sipahnp xayli hindu,
Chin dashti kiyiklariga mo'ndu...*¹⁰⁶

Ya'ni, kiprik saflari qora balodek, qora ko'zlar ustidaki qora soyadek. Soya ham emas, balki to'rt qator sarf tortgan surma rang kiyingan zangi qo'shinlaridek. Ko'z ochib yumguncha kipriklar ikki qo'shindek qon to'kmoq uchun bir-biriga tashlanadi. Bularni hind lashkari dema, balki Chin dashtining kiyiklariga qo'yilgan

¹⁰⁵ Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 65-б.

¹⁰⁶ Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 66-б.

qator qopqonlardir. Bu bilan, Navoiy, Layli oddiygina inson emas, balki Oллоhning mazhari ekanligini ya'na bir bor isbotlaydi.

Fuzuliy ham a'zolarining ta'rifida Navoiyning an'anasini davom ettirishiga qaramay, mahorat jihatidan o'ziga xoslik namunalarini yaratadi. Buni quyidagi misolda ham ko'rish mumkin:

*Ruxsorina rangi g'ozadan nang,
Hargiz anga g'oza vermamish rang,
Ko'z mardumagindan o'lsa xoli,
Ko'z mardmagi o'lurdi xoli...*¹⁰⁷

Yoki:

*Bir dilbari sarvqaddu gulro'y,
Sarvi xushu gulruxu sumanbo'y,
Shirin labi mansha'i latofat,
Ra'no qadi durug'ila ofat.
Avsofi latofatinda so'z cho'x,
Altofi malohatinda so'z yo'x...*¹⁰⁸

Xotifiy ham, prof. A. Abduqodirov ta'kidlaganidek, Ustozlari an'anasini davom ettirdi.¹⁰⁹ Gul yuzli va sunbul soch, shirin harakatli, ishvali, shakardek kulgusidan shakar to'kiladi. Ko'zida ming nozi bor, zulfi sunbuldan hid o'g'irlardi:

Бодом бу чашми он суманбар,
Гардида ниҳоли нозро бар.
(Ikki ko'zi qomat-qad niholining mevasi edi.)
Он ҳар бу ҳилол абрувон ном,
Аз вусла ду барги сабзи бодом.
(U ikki hilol qosh
O'smadan ikki bodom yaprog'i edi...)

Yuqoridagi misollardan xulosa qilib aytganda, har bir genial ijodkor "Layli va Majnun" dostonida Laylining ta'rifini maromiga yetkazib ta'riflashadi, portretini

¹⁰⁷Муҳаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. 23-6

¹⁰⁸ Шу асар, 25-6.

¹⁰⁹ "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. 2016-y, 5-son. 28-34-betlar.

ajoyib tarzda chizishadi va bu borada o'ziga xoslik yaratishadi. Bir so'z bilan aytganda, Layli obrazi orqali Sharq adabiyotida Olloh mazharini gavdalandirishga harakat qilishgan va buni uddasidan chiqishadi.

Sharq adabiyotida do'st obrazi an'anaviy va sermahsul obrazlardan sanaladi. Xususan, filologiya fanlar nomzodi Zuhra Mamadaliyevaning ma'lumotlariga qaraganda, do'st obrazi Turon va Eron xalqlari adabiyotida ahamiyatli obrazlardan, bosh qahramon yonida turuvchi, qiyinchiliklar va og'irliklarda yordam beruvi asosiy personajdir.¹¹⁰ Bu obraz qadim-qadimdan mif va afsonalarda, xalq og'zaki ijodida, mumtoz adabiyotda, bir so'z bilan aytganda barcha davr adabiyotida qo'llanilgan asosiy obrazdir. Jumladan, "Ravshan" dostonida Hasanxon va darvozabon, "Alpomish" dostonida Alpomish va Qorajon, "Qutadg'u bilik" asarida O'zg'urmish, "Gul va Navro'z" dostonida Bulbul obrazlari buning yorqin dalilidir. Xuddi shunday "Layli va Majnun" dostonlarida ham do'st obrazi ahamiyatli obrazlardan sanaladi.

Alisher Navoiy "Xamsa"si tarkibiga kiruvchi boshqa dostonlaridagi do'st obrazlaridan, xususan, "Hayrat ul-abror"dagi ikki vafoli do'st haqida hikoyatdagi do'stlar, "Farhod va Shirin" dostonidagi Shopur, "Sab'ai sayyor" dostonidagi Bahrom va Moniy munosabatlaridan keskin farq qiladi. Bu farqlarni nimalarda ko'rib o'tishimiz mumkin?

Yuqorida aytib o'tgan asarlardagi obrazlarni umumlashtiradigan bo'lsak, o'zbek adabiyotida qo'llanilgan do'st obrazlarning o'ziga xos o'rni va vazifalari shakllandi. Ular quyidagilar:

- ❖ oshiq-ma'shuqlarning maktublarini bir-biriga yetkazish.
- ❖ oshiq do'sti dardiga davo bermoq, ya'ni uning yor visoliga etishi uchun yordamlashmoq, kerak bo'lsa bu savob yo'lda jon fido etmoq.
- ❖ do'st bilan umrbod yoki asar so'ngigacha birga bo'lish.¹¹¹

Shularni inobatga oladigan bo'lsak, "Xamsa" tarkibida keluvchi, yuqorida keltirilgan asarlardagi obrazlarda bu o'ziga xosliklarning faqatgina bittasi

¹¹⁰ Алишер Навоий асарларининг қомусий луғати. Икки томлик. Тошкент, 2016-й.

¹¹¹ Алишер Навоий асарларининг қомусий луғати. Икки том. Тошкент, 2016-й.

tasvirlansa, “Layli va Majnun” dostonida ikkitasi (yuqorida keltirilgan birinchi va ikkinchi tasnif) ishtirok etganligiga guvoh bo‘lamiz.

Shu bilan birgalikda, “Layli va Majnun” dostonida ikki do‘st obrazning bosh qahramon taqdiriga befarq emaslik holatini kuzatishimiz mumkin. Ya’ni, Majnun o‘z yoriga etishishga harakat qilayotganda paytida unga Navfal yordam beradi.

Bundan tashqari Xotifiyning “Layli va Majnun” dostonidagi Navfal obrazi boshqa xamsanavis ijodkorlarning “Layli va Majnun” dostonida keltirilgan do‘st obrazlaridan bir qator xususiyatlariga ko‘ra, jumladan, ifodalash usuli, voqealar rivoji va tasvir yo‘nalishida farqlanishini ko‘rishimiz mumkin.

Nizomiy Ganjaviy “Layli va Majnun” dostonida Navfal obraziga shunday tavsif beradi:

*Ul yurtidan bir rahmdil,
Kelguvchi temiru mum kabi bil.
Navfal nomi etib shijoat,
Har bir tarafi qilardi toat...¹¹²*

Shoir Navfalni rahmdil va ayni paytda shijoatli, har bir urgan qilichi jangchilarga xos edi, deya tasvirlar ekan, jahli chiqqanda sherday, mehrda ohuday ekanligini aytib o‘tadi. Boyligi haqida so‘z yuritib shunday deydi:

*Ham hashmat oluvchi ham hashamdor,
Ham davlati ko‘pu ham diramdor...¹¹³*

Fuzuliy asarida esa Navfalning ta’rifidan oldin shoir an’anaviy tarzda soqiyga murojat qiladi:

*Soqiy, yana qasdi jon edar g‘am,
Ber jom labolabu damodam!
Bekas qolubam mani sabukroy,
San aylamasang manga madad voy!¹¹⁴*

¹¹² Низомий Ганжавий. Лайли ва Мажнун. Форсийдан Олимжон Бўриев таржимаси. Техрон.: Ал-Худо, 2005. 101-б.

¹¹³ Шу асар. 101-б.

¹¹⁴ Мухаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Фафур Фулом, 1968. 81-б

Shoir, soqiy (may quyuvchiga) do'st kabi murojaat etib yolvorar ekan, unga g'am joniga qasd qilayotganini aytib, undan may solingan jomni to'ldirib ber, deya iltijo qiladi. Bu bilan Fuzuliy, dard va g'am qanchalik ko'p bo'lmasin, Oллоhga bo'lgan ishqning oldida shunchalik kamligini, ojizligini ta'kidlab o'tadi. Shundan so'ng, shoir, Navfal madhiga o'tadi:

*Kim, vor edi bir xujastafarjom,
Ul asrda odilu nekunom;
Tug'ila musof mushkuli hall,
Ma'rufi zamona odi Navfal...*¹¹⁵

Navfalni ta'vsiflar ekan shoir, uni ishq yo'lida ko'p yugurganini aytib, bu yo'lida juda ko'p jabr ko'rgan edi, deydi. Shoir Navfalning Majnun haqidagi xabarni eshitish holatini shunday bayon etadi:

*Bir kun o'xunurdi she'ri Majnun,
G'oyatda begandi tarzi poking,
Mazmuni kalomi so'znokin...*¹¹⁶

Uni sifati haqida ulamolaridan so'ragan paytda, a'yonlari unga: – Ey shoh! Uni bir oy yuzli moh oshufta qilibdi, shu sababli u o'ziga rasvoliq (g'ariblik)ni kasb qilib, dard domiga tushibdi, – deya ma'lumot berishadi. Buni eshitgan Navfal Majnunni ko'rishni orzu qila boshlaydi:

*Navfal qilib orzuyi Majnun,
Ashob ila qildi azmi homun.
Bir go'shada ko'rdi zoru mahjur,
Holi nasaqi salohdan dur...*¹¹⁷

Navfal qarasaki, Majnunning atrofini yovvoyi hayvonlar o'rab olgan, uning dardiga sherik emish. Shunda Navfal undan nega bu erlarda yurganini, insonlardan uzoqlashib, yaxshiy hayvonlar bilan do'st tutunganligining sababini so'raydi. Shu fikrning davomida shoir, majoziy fikrlarga ham murojaat qiladi, xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanadi:

¹¹⁵ Шу асар. 82-б.

¹¹⁶ Мухаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. II жилд. – Т.: Фафур Гулом, 1968. 82-б

¹¹⁷ Шу асар. 82-б

*Davlat tilasang humodan ista,
Ganj istasang ajdahodan ista!...*¹¹⁸

Bu bilan Fuzuliy xalq og‘zaki ijodida davlat (baxt, omad) so‘zlari humo bilan, ganj (boylik) so‘zlari esa ajdaho bilan yonma-yon kelishiga ishora qiladi.

Navoiy “Layli va Majnun” dostonida ham Navfal va Majnun munosabatlari o‘ziga xos yo‘sinda talqin etiladi. Majnun Ka’ba ziyoratidan qaytgandan so‘ng tog‘- u biyobon tomonga yo‘l oladi. U yerda dod-faryod chekib, o‘zligidan judo bo‘ladi. Hech narsani o‘ylamas, har yonga boqsa, yorining (Majoziy tarzda Ollohning yerdagi mazhari Laylining) jamoli ko‘rinar edi. Majnunning firoq dardiga sherikdek, hattoki, yonida yovvoyi hayvonlar ham qo‘riqchi itdek aylanib yurishar edi. Shu vaziyatda, Navoiy, Navfalning xususiyatlarini bayon etadi:

*Navfalki Arabda erdi nodir,
Tigig‘a qadar, o‘qiga qodir.
YAxshiliq ila Arabda mavsum,
Oromgahi bu marz ila bo‘m...*¹¹⁹

Navoiy Navfalning xususiyatlarini keltirar ekan, uni o‘q-yoy otishga mohir ekanligini aytib o‘tadi. U kunlarning birida ovga chiqish uchun qabilalardan odamlar yig‘adi. Ov paytida barcha kiyiklar Majnun qoshida to‘planishadi. Shunda Navfal hayron qolib, odamlaridan, buni sizlar ham ko‘ryabsizlarmi? – deya so‘raydi. Uning sheriklari Majnundan ogoh edilar. Shunda unga bor voqeani aytib berishganda, Navfal ko‘zyosh to‘kib, ov qilishni tashlaydi. Chunki u ham bir vaqtlar ishq mojarosini boshidan kechirgan edi. Bu bilan, Navoiy, Olloh ishqida devona bo‘lgan inson iztiroblarini boshidan o‘tkazgangina tushina olishiga ishora qiladi.

Xotifiy asarida ham Navfal obrazi hukmdor sifatida tasvirlanadi. Shoir uni vafo sardorining og‘aynisi sifatida tasvirlar ekan, do‘stlari bilan sayr va ovdan qaytayotib, Najd tog‘i yaqinidan o‘tib qoladi. Qarasaki, Majnun o‘z dardi bilan ovora. Yordamchilaridan uning dard-u holini so‘rab bilgandan so‘ng, darddan

¹¹⁸ Шу асар. 83-б

¹¹⁹ Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 157-б.

ko'ngil-bag'ri dardga to'ldi. Shu joyda Xotifiy ustozlari an'anasini davom ettirib, quyidagicha tasvirni yaratadi:

Ў низ ҳачри гул узоре,
Дар синам хеш бошт хоре.
*(U ham bi ul yuzlining hajridan,
Ko 'ksida tikani bor edi.)*
Дар кӯчаи ишқ чун гузар дошт,
Аз меҳнати ошиқон хабар дошт.
*(Ishq ko 'chasidan o 'tgan edi,
Oshiqalar azobidan xabardor edi.)*
Гардид зи бораги пиёда,
То ёр шавад ба он фитода.
*(Otdan piyoda bo 'ldi toki,
U aftodaga do 'st bo 'lsin.)*

Majnunga o'zini do'st deb tutgan Navfal, unga o'z yorini ikki narsadan birini qilish orqali, yo urush orqali, yo sulh orqali olib beraman deb va'da beradi. Layli qabilasiga Navfatl xat yozadi va otasidan uni Majnunga berishlaarini talab etadi. Lekin bunga ota ko'nmaydi, shu sababli Navfal Layli qabilasiga urush e'lon qiladi. O'rtada juda katta urush bo'ladi:

Сарҳои сарон фитода дар хок,
Паҳлӯи дшоварон шуда чок...
*(Sardorlar boshi tuproqqa qorishdi
Qo 'rqmaslarning yonlari yirtildi...)*

Bu janglardan Majnun juda xijolatda edi. Layli qavmi mag'lub bo'lgandan so'ng, Layli Majnunning asiri bo'ldi. Xotifiy shu o'rinda asar qahramonlariga yangicha ruh beradi. Endi Navfal va Qays o'rtasida adoval uyg'onadi. Navfal Laylini ko'rib unga oshiq bo'lib qolgandan so'ng, shunday deb o'ylaydi:

Гуфто агараш диҳам ва Лайди
Бо ин дили зор чун кухам чун.
(Dedi: agar Majnunga bersam,

Bu zor bilimni nima qilay, nima.)
 В-ар ақл зи баҳри хеш бандам,
 Мардом ҳама сарзаниш куҳандам.
(Va o 'zim uchun nikoh bog 'lasam,
O 'lsam ham ta 'ma berdilar.)
 Он беҳ, ки ба заҳр кори Мачнун,
 Созам, ки раҳам зи бори Мачнун.
(Yaxshisiz shuki, Majnun ishini zahar bila
Hal qilsam-u, Majnun yukudan halos topsam.)
 Он ҳар чу бар наҳезад аз роҳ
 Ин қар нашлавад ба дилҳоҳ.
(U tikanni yo 'ldan olib tashlasak,
Ish ko 'ngildagiday bo 'lmaydi.)
 Фармуд, ки шарбати ҳамоҳам,
 Созанд зи баҳри марди ғофил.
(Buyurdiki bir g 'ofil kishi uchun
O 'tkiz zahar tayyorlasinlar)

Shunda shohning mahrami ana shu zahar mavjud bo'lgan sharbatni majlisga olib keladi va qaysi sharbat zaharlanganligini esidan chiqaradi. Shunda zahaar to'ldirilgan kosani shoh olib ichadi va o'zi qazigan chohga o'zi tushadi.

Demak, bu to'rtala ijodkor asarlarida Navfalning Majnunga va'da berishi o'xshash bo'lsa-da, voqealar rivoji va obrazlarning haqqoniy tasvirlanishida farqlarni ko'rib chiqdik. Nima bo'lganda ham Navfal timsolida o'z do'stiga yordam berishni istagan, lekin taqdirning hukmi oldida ojiz bo'lgan sadoqatli do'st (Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy asarlarida) va bu yo'lda o'z va'dasini buzgan va vafosizlik yo'lini tutgan do'sst (Xotifiy asarida) timsoli aks ettirilgandir.

III-BOB.

ABDULLOH XOTIFIY “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONINING ILMIY-TANQIDIY MATNI VA TARJIMASI.

III.1. Dostonning transletiratsiyasi va ilmiy-tanqidiy matni.

این بامه که خامه کرد بنیاد
توقیع قبول روزیش باد

1. Ин номе, ки хома кард бунёд, Bu kitobni qalam bunyod etdi,
Тавқеи қабули рӯзияш бод Shu nomani Alloh ulug‘ etib boshqalarga
yaxshilik yetkazsin.

طفر اش بنام پارشاهی
کور است چو عرش بار کاهی

2. Туғрош ба номи подшоҳӣ, Bu nomani boshlashga sababchi Podshoh¹²⁰
К-ӯрост чу ариш боргоҳӣ. Makon-u manzili arsh bo‘lgandir.

سلطاب سر یر ملک مستی
بنیاد نه بلند و پستی

3. Султони сарири мулк ҳасти, U mulk borlig‘ining egasi,
Бунёди нӯҳ баланду пастӣ. To‘qqiz qavat yer yaratuvchisidir.

دار ندۀ هفت کاخ افلاک
ساز ندۀ آدم از کف خاک

4. Дорандаи ҳафт кохи афлок, Yetti qavat osmonning hukmdori,
Созандаи одаи аз кафи хок. Bir hovuch tuproqdan inson yaratuvchisidir.

بیناکن چشم اهل بینش
فیاض و جود آفرینش

5. Бинакуни чашми аҳл бинаш, Ko‘zlarga nur bag‘ishlovchi zot,
Фаёзиу ва вучуди офаринаш. Uni¹²¹ yerda yaratilishini ixtiyor etdi.

نقاش نگار خانۀ غیب
مناشئ صحیفاهای لاریب

6. Наққоши нигори хонаи ғайб, Boqiy dunyo uyining me'mori
Муншии саҳифаҳои лорайб. Va uning, shubhasiz, sahifalari yaratuvchisi.

زينت گر آسمان به انجم
تش ياف ده زمين به مردم

7. Зийнатгари осмон ба анжум, Osmonni sayyorlar bilan ziynatlovchi,
Таширфдеҳи заини ба мардум. Odamlarni yerda yashattiruvchi.

لطفش ز مه خجسته هيد
جلخال بساق هرش بخشيد

8. Лутфаш зи маҳи хучастаи ийд, Uning lutfi oyni osmonga
Холхол ба соқи арш бахшид. Xalxoldek¹²² hadya etdi.

بر گو شه پيل چرخ خودراي
او داد بهزدوي ز حل جاي

9. Бар гӯшаи пили чархи худрой, U osmonning bir chetidan,
Ў дод ба ҳиндуи зуҳал ҷой. Zuhali Hindusiga va Yerga joy berdi.

داد از پي ضبط پيل مستش
از قوس قزح كجك بدستش

10. Дод аз паи забти пили масташ, Yerni tutib turish uchun
Аз қавси қӯзаҳ качак ба дасташ. Unga kamalakdan yoy va nayza berdi.

او داد ز تار هاي خورشيد
ابريشم چنگ و هودناهي

11. Ў дод зи торҳои хуршед U¹²³ Nohidning¹²⁴ Chang va Udiga¹²⁵
Абришими чангу уди Нохид. Quyosh nurlaridan ipak berdi.

برخييس كه ديد دولت دين
سبحه دهدش ز هقد پرويب

12. Бирҷис, ки дид давлати дин. Mushtari¹²⁶ Alloh qudratini ko'rib,
Сабҳа диҳадаш зи иқди Парвин. Surayodan¹²⁷ tasbeh donalari berdi.

شد قوس فلل كمان بهرام
لشكر كشيش پو كرد انهام

13. Шуд қавси фалак камони Баҳром, U Bahromga¹²⁸ falakka lashkar
Лашкар кашияш чу кард инчом. tortmoqchi bo'lganda,
Unga kamon hadya etdi.

او داد بآفتاب شاهی
وزخیل کواکبش سپاهی

14. Ў дод ба офтоб шоҳи, U quyoshga shohlik berib,
В – аз хайли кавокибаш сипоҳи. Lashkarlarini yulduzdan qildi.

زو یافته این عجوزه خاک
این پنبه صبح و چرخ افلاک

15. З – ў ёфта ин ачузаи хок Undan topdi, go'yo Yer
Ин пунбои субҳу чархи афлок. Tongdan paxta berdi, falakdan charx.

او کرده بنا سر اجه تن
بکشاده درو ز دیده روزن

16. Ў карда бино сирочаи тан, U odamning tanasini yaratib,
Бикшода дарӯ зи дида равзан. Undan ko'z tuynugini ochib qo'ydi.

بسته ز کمال قدرت از موی
بر منظر دیده طاق ابروی

17. Баста зи камоли қудрат аз мӯй, O'zining qudrati bilan soch tolasidan
Бар манзари дида тоқи абрӯй. Toq¹²⁹ kabi qosh yaratdi.

او ساخته این همه هجایب
او کرده بنای این غرایب

18. Ў сохта ин ҳама аҷоиб, Bu ajoyibotlarni hammasini u yaratdi,
Ў карда бинои ин ғароиб. Bu g'aroyibotlarni bino etdi.

خاکستر چرخ را که بنمود
ز آئینه ماه ز نگ بزدود

19. Хокистари чархро, ки бинмуд, Charxning bunday natijasi,
Зи оинаи Моҳ занг бизудуд. Oynning ko'zgusida ko'rinadi.

این مشعل مه که بر فروزد
بی روغن و بی فتیله سوزد

20. Ин машъали маҳ, ки бар фирузад Oy go'yoki yog'siz, piliksiz
Беравғану бефатила сӯзад. Yongandek o'zidan nur taratdi.

در پنبه ابر ان یگانه
بنهاد ز ژاله پنبه دانه

21. Дар пунбаи абр он ягона, Yagona zot momiq bulutga
Бинҳод зи жола пунбадона. Tomchilarni chigitdek qadadi.

کرده صدف و سحاب را جفت
ز ان هر دو بزاد درنا سفت

22. Карда садафу саҳобро чуфт, Alloh sadaf va tomchini birlashtirib,
З – он ҳар ду бизод дури носуфт. Undan durni yaratdi.

امواخ ده بحار جود است
بخشنده خلعت و جود است

23. Амвочдеҳи бухури чуд аст, Sahovat ummonini qo'zg'atuvchi
Баҳшандаи хилъати вучуд аст. Udir,
Insonga vujud xirqasini¹³⁰ ehson
etuvchi ham Udir.

سنباب دهد ز میغ با کوه
کز سردی دی نبیند اندوه

24. Санҷоб диҳад зи миғ бо кӯҳ, U tog'ga qish sovug'idan aziyat
К – аз сардии дай набинад андӯҳ. chekmasligi uchun
Bulutdan po'stin hadya etadi.

با مفلس دشت در بهاران
بخشید درمز نقش باران

25. Бо муфлиси дашт дар баҳорон, Bahorda yo'qsil dashtlarga
Баҳшид дирам зи нақши борон. yomg'irdan baraka beradi.

هر طفل گیاه که خاک ز ادش
از دایه ابر شیر دادش

26. Ҳар тифл гуёҳ зи хок зодаш, Har giyoh yerdan chiqqanda
Аз дояи абр шир додаш. Bulutdan unga boquvchidek sut
tutqazadi.

از مطبخ او سپهر گرداب
باشد طبقی و مه نمکدان

27. Az matbaхи ū sipeҳри гардон. Olloh dasturxonida charx¹³¹ lagandek
bo‘lib,
Бошад табақеву маҳ намакдон. Oy shu dasturxon tuzdonidekdir.

شیر از نعمش سپاه موران
ظل کرمش پناه کوران

28. Шер аз наъомаш сипоҳи мӯрон. Uning soyayi karamida chunoli
lashkari she‘rdek bo‘lsa,
Зилли каромаш паноҳи кӯрон. Ko‘zi ojizlar ham bebahra qolmaydi.

در باغ ز گرد بالاش گل
افکنده بساط بهر بلبل

29. Дар боғ зи гирди болиши гул, Bog‘dagi bulbullarga gul bargidan joy
Афканда бисот баҳри булбул. tayyorlab qo‘ygan zot ham Udir.

او داده بگل لطافت روی
او کرده دهان غنچه پر بوی

30. Ū дода ба гул латофати рӯй. G‘uncha og‘ziga muattar hid bergan
Ū карда даҳони ғунча пур бўй. ham, gulga chiroyli yuz bergan ham U.

مر غول بنفشه او دهد تاب
رخسار سمن از و برد آب

31. Марғули бунафша ū диҳад тоб, Gunafsha sochini bezovchi ham,
Рухсори суман аз ū борад об. Yasmin yuziga berguchi ham,

او نافه دهد بناف آهو
در عنبر و عود او دهر بو

32. Ū нофа диҳад ба нофи оҳу, Kiyikka mushk beruvchi ham,
Дар анбару уд ū диҳад бў. Anbar va ud daraxtiga hid beruvchi
ham U.

عالم بو جود اوست قائم
اور است دوام و اوست دائم

33. Олам ба вужуди ўст қоим, Olam Uning borligi uchun mavjud,

Ўрост давому ўст доим.

Abadiylik va davomiylik Ungagina
xosdir.

شیر از او اگر نباشد
اوراق فلک ز هم بپاشد

34. Шерозаи ў агар набошад,
Авроқи фалак хи ҳаи бипошад!

U falakni tutib turmaganda edi,
Falak varoqlardek sochilib ketar edi.

ز ان چرخ نمیرودز یک جای
کش بسته بحئی شفق پای

35. З – он чарх намеравад зи як ҷой,
К – аш баста ба ҳинои шафақ пой.

Shu sababli charx bog‘langandek
bir joydan ketolmaydi.

بر دامن کوه پید از آب سنگ
تا او نکند بر فتن آهنگ

36. Бар домани кӯҳ чид аз он санҷ,
То ў накундба рафтан оҳанг.

Tog‘lar o‘z o‘rnidan jilmasligi uchun
toshdan terib tashladi.

دندان ستاره انمايد
کز کار کسان گره کشايد

37. Дандон ситораро намояд,
К -аз кори касон гиреҳ кушояд.

Tish yulduzlardek ishni osonlashtiradi,
Insonlar mushkulini oson qiladi.

او کار کشای بسته کاران
امید همه امیدواران

38. Ў кор кушон баста коран,
Умйеди ҳама умедворан.

Ishi yurishmaganlarni ham qo‘llovchi
umidvorlarga ham umid beruvchi
Udir.

غمخواره مشتی بی کس و کوی
دل خوش کن قوم بی ره وروی

39. Ғамхораи мушти бекасу кӯй.
Дилхушқуни қавми бераҳу рӯй.

Bechoralarga yordam beruvchi ham,
yo‘lini yo‘qotganlarga yo‘l ko‘rsatib,
xursand qiluvchi ham U.

علم همه پیش علم او جهل
کار همه نزد کار او سهل

40. Илми ҳама пеши ими ў ҷаҳл,
Кори ҳама назди кори ў саҳл.

Barchaning ilmi Uniki oldida nodon
Hammaning ishi uning ishi uning ishi
yonida osondir.

هر پيز ترا بدل ر سیده
زان پیش که گوئیش شنلیده

41. Ҳар чиз туро ба дил расида,
З – он пеш ки гӯияш шанида.

Har narsa sening qalbingga yetganda
Sendan oldin bilguvchi Udir.

او بی همه و ز همه جدانه
باشد همه جا و هیچ جانه

42. Ў беҳама ву зи ҳала чудо на,
Бошад ҳама ҷову ҳеч ҷо на.

U barcha joyda bor,
Lekin Usiz hech joy mavjud emas.

نه عقل برد بسوی اوراه
نه خضر خردز کارش آگاه

43. На ақл барад ба сӯи ў роҳ
На Хизр(и) хирад зи кораш огоҳ.

مائیم و ندامت و تحسر
سر گشته و ادی تحیر

44. Моям у надомату таҳасур
Сар куштан водии таҳаюр.

Biz hayrat vodiysidan
Nadomat va hasrat bilan o‘tamiz.

دردا که بآب پی نبر دیم
لب تشنه درین سراب مردیم

45. Дардо: ки ба об пай набурдем,
Лабташна дар ин сароб мурдем.

Hayhod: bu vodiya suv topolmay,
Bu sarobda¹³² suvsizlikdan o‘ldik.

زین پرده نداد کس جوابی
نکشاد دری ز هیچ بابی

46. З – ин парда надод кас ҷавобе,
Накшод даре зи ҳез бобе.

Parda ortidan¹³³ hech kim javob
bermadi,
Bizga bu yo‘lda ustoz topilmadi.

کسرا نبود درین حرمره

از حسرت روی آن صنم آه

47. Касро набувад дар ин ҳарам роҳ, Insonga bu manzilda joy yo‘q,
Аз ҳасрати рӯи он санам оҳ. U sanam jamoli hasratidan, e voh.

این تحفه نسیب هر کسی نیست
وین طرفه حبیب هر خسی نیست

48. Ин тӯҳфа насиби ҳар квсе нест, Bu sovg‘a¹³⁴ har kimni nasibasi emas,
В – ин турфа ҳабиби ҳар хасе нест. Bu Yor¹³⁵ har kimning yori emas.

هر دیده نه لایق جمالش
هر سر نه موافق خیالش

49. Ҳар дида на лоиқи ҷалокаш, Har nigohga Unga boqish munosib emas,
Ҳар сар на мувофиқи ҳаёлаш. Har inson Uni o‘ylashga munosib emas.

دائم که نیم من سیه کار
شایسته التفات دلدار

50. Донам, ки ноям мани сияҳкор, Bilamanki, men – ichi qora
Шоистаи илтифоти дилдор Dilbar iltifotiga sazovor emasman.

لطفش که ز هیچ کرد هستم
در دامن عفو اوست دشتم

51. Лутфаш, ки зи ҳеч кард ҳастам, Lutfi bilan meni yo‘qdan bunyod qildi,
Дар домани афу ўст дастам. Qo‘lim uning afvi etagidadir.

هست از کرمش امید آنم
کاخر سوی خود دهد نشانم

52. Ҳаст аз карамаш умиди онам, Karamidan umidim shuki,
К – охир сӯи худ диҳад нишонам. Oxir o‘zi tomon yo‘l ko‘rsatsin.

مناجات

(Муножот – Munojot)

ای مر حم ریش دافگاران
وی چاره کار خام کاران

53. Эй, маҳрами реши дшафгорон, Ey ko‘ngli siniqlarning darmoni,
В – ей, чорам кори хомкорон! Ey chigal ishlarning chorasi.

مگذار چنین ذلیل و زارم
از راه کرم برار کرم

54. Мағзор чунин залилу зорам, Meni xor-uzor etma,
Аз роҳи карам барор корам. O‘z karamingdan ishimni o‘ngla.

سر گشته مکن مرا ازین بیش
بنامای رهی بجانب خویش

55. Сар кушта макун маро азин беш, Meni tirik o‘ldirmagin ko‘p,
Бинмой раҳе ба чониб хеш. O‘zing tomonga yo‘l ko‘rsatgin.

در و ادئی معصیت اسیرم
مگذار که تشنه لب بمیرم

56. Дар водии маъсират асирам, Gunoh vodiysida asirman,
Мағзор, ки ташналаб бимирам. Meni tashnalab o‘ldirma.

خجلت ز ده ام ز کرده خویش
وز شرم تو سر فکنده در پیش

57. Хизлат задам зи кардам хеш, Sendan o‘z ishimdan uyalib,
В – аз шарми ту сар фиканда дар пеш! Boshim egib, sening oldingda
pushaymon bo‘lid,

چون آمده ام بعذر خواهی
نومید مکن مرا الهی

58. Чун омаадам ба узрхоҳӣ, Sendan o‘tinch so‘rab kelganman,
Навмед макун маро, илоҳӣ! Meni noumid etma, Ollohim!

بر دار ز مطری هلاکم
مگذار میان خون و خاکم

59. Бардор зи матраҳи ҳалокам. Meni qora tuproq orasida yolg‘ilatma.
Мағзор миёни хуни хокам! O‘lim to‘shagidan qutqar.

تاریک شب است و چاه در راه
از آفت چه نعوذ بالله

60. Торик шаб асту чоҳ дар роҳ, Tun qorong‘u yo‘lida choh bor,
Аз офат чаҳ наузибиллоҳ. Yo‘l ofatidan o‘zing qutqar.

من پای برهنه ره چنگ زار
وز هستی خویش گشته بیزار

61. Ман пой бараўна раҳ чангзор, Men yalang oyoq, yo‘l tuproq
В – аз ҳастии хеш гашта безор. Yo‘l¹⁷¹²⁰da ezilgandirman.

هر پند بد و گناه کارم
از لطف تو لیل امیدوام

62. Ҳар чанд баду гуноҳкорам. Qanchalik yomon va gunohkor bo‘lsam ham
Аз лутфи ту лек умедворам. Sening lutfingdan umidvordirman.

عصیان من ارز حد برون است
احسان توز ان بسی فزون است

63. Исёни ман ар зи ҳад бурун аст Mening isyonim haddan ortiq,
Эҳсони ту з – он бaсе фузун аст. Sening ehsoning undanda ortiq.

در مزرع ما اگر په نم نییت
ابر کرم تو هست غم نیست

64. Дар мазрам мо агарчи нам нест, Mening yerimda nam yo‘q,
Абри карами ту ҳаст ғам нест. Sening karam buluting bor, g‘amim
yo‘q.

رخش غضبث اگر چه تند است
در پیش سمند لطف کند است

65. Раҳши ғазабат агарчи тунд аст, G‘azab oting garchi bo‘lsa ham,
Дар пеши саманди лутф кунд аст. Sening lutfing ayg‘iri oldida hechdir.

گر آتش قهر سوز ناک است
چون بحر کرم بود پاک است

66. Гар оташи қаҳр сўзнок аст, G‘azab o‘ting kuydiruvchidir,

¹²⁰ Hayot ma’nosida

Чун баҳри карам бувад чӣ бок аст.

Lekin karam dengizing undan ustun.

لطف تو براغ دود گلخن
داده ز شراره چشم روشن

67. Лутфи ту ба зоғи дуд гулхан,
Дода зи шарора чашми равшан.

Lutfing tutunda gulxandir,
Yolqinga o'tkir ko'z berur.

تاریک شب مرا اگر نور
بخشی نبودز مکر مت دور

68. Торики шаби маро агар нур
Баҳши набувад зи макрамат дур.

Agar mening qorong'u kechamga
Nur bag'ishlasang, karamingdan
uzoqmas.

یارب بکمال عز و جاهت
و انگه بر و ند گاب راهت

69. Ё Раб, ба камоли иззу чоҳам
В – онгаҳ ба равандағони роҳат.

Rabbim, qudrating bilan,
Yo'lingda yurguvchilarga

کز آب و ضو کن آب رویم
وز گفته خویش گفت و گویم

70. К – аз об вузу кун оби кўяи,
В – аз гуфтам хеш гуфту – гўям.

Kavsar suvidan ulug'lik ber,
Kamolingdan so'zlashish,

از دانه سبجه ام غذاده
وز دانه غله ام غناده

71. Аз донаи сабҳаам ғизо деҳ,
В – аз донам ғаллаам ғино деҳ.

Tasbeh donalaridek g'allalardan
Ularga bisyor oziq ber.

یارب سگ ز شت نفس را ساز
از آهوی چشم دلبر ان باز

72. Ё Раб, сағи зишти нафсро соз,
Аз оҳуи чашми билбарон боз.

Rabbim, nafs itini
Makoralar ko'zi og'usidan qaytar

از کو کب اشک در سحرگاه
بنمای بجانب خودم راه

73. Аз кавкаби ашк дар сахаргоҳ,
Бинмой ба чониби худам роҳ.

Tonglar ko‘zin yoshi yulduzidan,
O‘zim tomonga yo‘l ko‘rsat.

از شورئ اشک چشم بی ژب
خواهد نمکی که نایدش خواب

74. Аз шӯрии ашки чашми беоб,
Хоҳад намаке, ки нояш хоб

Ko‘zimdagi ko‘z yosh sho‘rligidan,
Uyqu kelmaydi.

در چاه شقاو تم بدین روز
آه سحرم ده از سر سوز

75. Дар чоҳи шақоватаи бадин рӯз
Оҳи саҳрам деҳ аз сару сӯз.

Badbaxtlik chohidan bugun
Tongda ohimga yetgil.

کز مدالف که هست در آه
سازم رسن و بر ایم از چاه

76. К – аз мад алаф ки ҳаст дар оҳ,
Созаи расану бароям аз чоҳ.

Uzun o‘tlardan ip to‘qiy,
Bu chuqurdan meni xalos et.

ماراز خودئ ما جداکن
توفیق رفیق راه ما کن

77. Моро зи худии мо ҷудо кун,
Тавфиқи рафиқи роҳи мо кун.

Bizni manmanlikdan qutqar,
Do‘stning to‘g‘ri yo‘liga boshla.

توفیق تو گر رفیق راه است
غم نیست اگر چه ره تباه است

78. Тавфиқи ту гар рафиқи роҳ аст
Ғам нест агар чи раҳ табоҳ аст.

Qachponki azal etganda, o‘z lutfing-la
Sochimning bir tolasini ham
kamaytirma.

چون دست اجل شود گلو گیل
مویی نکنی ز لطف تقصیر

79. Чун дасти аҷал шавад гулӯгир,
Мӯйе накани зи лутфи тақсир.

Agar charhi dun meni mag‘lub etsa,
Karaming-la qo‘limdan tut.

آن خانه که آمدش لحد نام
روشن کنیش ز نور اسلام

81. Он хона, ки омадаш лаҳад ном,
Равшан кунияш зи нури Ислом. Mahadim¹³⁷ni islom nuri bilan yorit.

آن کن که نمایدم لب گور
در دیده نکوتر از لب حور

82. Он кун ки намоядам лаби гӯр,
Дар дида накӯтан аз лаби хӯр. Shunday qilki, qabr og'zi
Ko'zimga hurning dudog'idek
ko'rinsin.

